

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM**  
**VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası**

**Abdujabbor Omonov**

**ESKI O‘ZBEK TILI VA YOZUVI**

**(amaliy mashg‘ulotlar)**

**5120100- filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek  
filologiyasi) yo‘nalishi III kurs talabalari uchun uslubiy  
qo‘llanma**

**NAMANGAN – 2019 yil**

Uslubiy qo'llanma 5120100 – filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek filologiyasi) yo'nalishi III kurs talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, unda “Qadimgi turkiy til” fani bo'yicha amaliy mashg'ulot mavzulari, rejasi, amaliy mashqlar, nazorat uchun savol va topshiriqlar, adabiyotlar ro'yxati berilgan.

**Taqrizchilar:**

**Mo'minjon Sulaymonov**  
Filologiya fanlari nomzodi, dotsent

**Saidumar SAYDALIYEV,**  
Filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Ushbu qo'llanma NamDU o'quv-uslubiy kengashining  
20.11.2019 yildagi 4-sonli yigilishi qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

## MUQADDIMA

Arab alifbosi asosidagi o'zbek turkiy yozuvi qariyb 1000 yil davomida iste'molda bo'lib kelganligi barchamizga ma'lum. Bu yozuv milliy qadriyatlarimiz namunalaridandir. O'zbekistonning mustaqil davlat sifatida dunyoga chiqishi, hayotning barcha jabhalarida, shu jumladan, ta'lim sohasida ham tub burilishlarni vujudga keltirdi. Ayniqsa, o'tmish tariximiz bilan bevosita bog'liq qo'lyozma manbaalarni, ilmiya-dabiy asarlarni o'rganishga imkoniyat yaratdi. Bu esa, allomalarimizning ma'naviy va ma'rifiy merosiga bugungi kun nuqtai nazaridan mehr ko'zi va cheksiz hurmat bilan qarashga keng yo'l ochib berdi. Shu bilan birga, oldimizga o'tmish merosimizni atroflicha o'rganish bilan bog'liq muammolarni tezlikda hal etish vazifasini ko'ndalang qo'yadi. Milliy ma'naviy meroslarimizni o'rganish, tadqiq etish, ularni xolisona yoritish, shu bilan birgalikda ilg'or g'oyalarimizni butun dunyoga ko'rsatish uchun «Eski o'zbek tili va yozuvi» fanini, hamda uning arab alifbosiga asoslangan eski o'zbek yozuvini o'rganishning o'rni katta. Bu fan arab yozuvi asosidagi eski o'zbek yozuvining grafik, fonetik, grammatik xususiyatlari bilan tanishtiradi va eski o'zbek yozuvi yodgorliklari matnlarining o'qilishi, o'ziga xos tomonlarini yoritib beradi. Matn tahlilini, izohli o'qishini amalga oshiradi, ayni zamonda o'zbek tili tarixi fanlarining boshlovchi kursi vazifasini ham bajaradi.

Istiqlolni kutib olgan «Davlat tili to'g'risida» gi qonunda bu yozuv milliy qadriyatlarimizga aylanib qolganligi o'z ifodasini topgan va uning 16-moddasida eski o'zbek yozuvini o'rganishga davlat ahamiyati berilgan. Bu qonun eski o'zbek yozuvini oliy o'quv yurtlarida, o'rta-maxsus o'quv yurtlarida, maktablarda ommaviy ravishda o'qitilishi lozimligini va shu sohada mutaxassislar tayyorlash ishiga jiddiy e'tibor berilishini kun tartibiga qo'ydi. Shu qonunning ijrochisi sifatida pedagogika oliy o'quv yurtlarida «O'zbek tili va adabiyoti, eski o'zbek tili va yozuvi» ixtisosligi bo'yicha mutaxassislar tayyorlandi. Shuningdek, filologiya, tarix, ixtisosliklari bo'yicha ta'lim olayotgan talabalarga ham «Eski o'zbek tili va yozuvi» kursi joriy qilindi. Bu tadbirlar O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi Vazirligining 1990 yil 16 apreldagi 122-sonli buyrug'iga asosan amalga oshirildi.

Shuni aytish lozimki, ko'rsatilgan bakalavriat yo'nalishlari namunaviy o'quv rejalarida «Eski o'zbek tili va yozuvi» kursi soatlari xilma-xil bo'lsada, ushbu namunaviy o'quv dasturidagi mazmun ishchi (joriy) o'quv dasturida moslashtirilgan holda rejalashtirilishi lozim bo'ladi.

Davlat tili qonunining yangi tahlilida eski o'zbek yozuvini o'rganish haqida maxsus modda yo'q, bundan eski o'zbek yozuvini o'rganishni davlat ahamiyati olib tashlandi degan xulosa chiqmaydi. Bu yozuvni o'rganish boshqa qonunning 1994 yil 5 sentyabrda qabul qilingan «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish» to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonunining 2- moddasida «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish bilan birga O'zbekiston xalqining milliy iftixori bo'lmish bebaho ma'naviy meros bitilgan arab alifbosini va krillitsani o'rganish va ulardan foydalanish uchun zarur sharoitlar saqlanib qoladi»-degan qoidalar orqali mustahkamlangan.

## **Mavzu: Eski o'zbek yozuvi va uning ahamiyati.**

Reja:

1. Eski o'zbek yozuvi fanining tarixi.
2. Eski o'zbek yozuvi fanining ob'ekti.
3. Eski o'zbek yozuvi fanining vazifalari.
4. Eski o'zbek yozuvi fanining ahamiyati.
5. Eski o'zbek yozuvi fanining maqsadi.

Tarixdan ma'lumki, yuksak ma'naviyat, boy madaniyatga ega har bir xalqning o'z yozuvi bo'lgan. Shuni mamnuniyat bilan ta'kidlab aytishimiz mumkinki, O'rta Osiyo ham eng qadimgi madaniyat o'choqlaridan hisoblanadi va bu erda yashagan xalqlar juda qadimdan o'z yozuv madaniyatiga ega bo'lganlar. O'rta Osiyoda qo'llanilgan qadimiy bitiklar-ayrim xronika va tarixiy manbalarda saqlanib qolgan xorazm, sug'd (oromiy), o'rxun-enasoy va uyg'ur yozuvlarini bunga misol tariqasida keltirishimiz mumkin.

. ESKI O'ZBEK YOZUVINING UMUMIY XUSUSIYATLARI Hozirgi yozuvdan savod chiqargan kishi uchun eski o'zbek yozuvini o'rganish ancha mashaqqatli ish bo'lib ko'rinadi. Biroq bu yozuvning xususiyatlariga chuqur ilmiylik nuqtai nazaridan yondashgan va metodik jihatdan to'g'ri yo'ldan borgan kishi uchun yozuvni o'zlashtirishda hech qanday qiyinchilik bo'lmaydi, aksincha, unda shu yozuvni o'rganishga nisbatan alohida qiziqish va ishtiyoq paydo bo'ladi. Eski o'zbek yozuvini o'rganish bo'yicha yaratilgan qo'llanmalar anchagina bor va ulardan foydalanib talabalarimiz eski yozuv sirlari bilan allaqachon tanishib ulgurdilar. Biroq yozuvni o'rganish ustidagi mashqlar o'quvchini tabiiy tarzda bir qancha noaniq nuqtalarga, anglashilmovchiliklarga duch keltiradiki, biz bu erda tilga olingan ma'lumotlar orqali ana shu xil noaniqliklarni bartaraf etishga va eski yozuvning eski o'zbek tilini o'rganishga yo'l ochuvchi ayrim tomonlarini yoritishga harakat qilamiz. Shunga e'tibor berish kerakki, qalam uchi satr chizig'i bo'ylab yo'l olar ekan, shu yo'nalishda u so'z libosi (harf shakli)ni bichib, tikib borish bilan birga, ma'lum to'xtamga borganda, qalam uchini yuqoridan o'ngga va undan quyiga borib bu libosning tugmachalarini – ost-ust nuqtalarini ham o'rni

oʻrniga qoʻyib (qadab) boradi. Masalan, «qalam» soʻzini yozar ekanmiz, oʻngdan chapga qarab qalam uchi bir harakat bilan (daftardan uzilmasdan) u soʻz shaklini yozib chiqadi: كَلَمٌ kabi. Yozuvning fonetik-funksional tabiati haqida soʻz borganda baʼzi olimlar bu yozuvni fonografik yozuv deb baholasalar, boshqalari yarim fonografik yozuv deb hisoblaydilar. Arab yozuvi arab tili qurilishiga moslashgan boʻlib, soʻzdagi undosh tovushlarni, asosan, boʻgʻinlarni ifodalashga xizmat qilgan. Eski oʻzbek yozuvi va oʻzbek tiliga oʻtib oʻzlashib qolgan arabcha soʻzlarni oʻz shakli bilan ifodalasa ham, bu tilning oʻz soʻzlarini fonografik asosda ifodalashga xizmat qildirilgan. Masalan, [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi 5 «Maktab» soʻzi 6 tovushli (fonemali) soʻz, ammo yozuvda u m+k+t+b) tarzida 4 undosh harf bilan ifodalangan. Mamlakat soʻzida 8 ta fonema bor, yozuvda esa u m+m+l+k+t) tarzida 5 harf bilan yoziladi. Bular – arabcha soʻzlar. «Qoshiq», «qiziq», «chiziq», «bildi» kabi turkcha-oʻzbekcha soʻzlarda esa 5 tadan fonema bor, ular yozuvda ham 5 harf bilan ifoda etiladi: Koʻrinadiki, arab yozuvi bilan shu yozuv asosida shakllangan eski oʻzbek yozuvi bu jihatdan aynan bir xil emas ekan. Qadimgi turkiy yozuvlar taʼsiri bilan eski oʻzbek yozuvi soʻzdagi har bir tovushni alohida-alohida ifodalashga xizmat qildirilgan, lekin bu tilga arab tilidan oʻtib oʻzlashib qolgan soʻzlar koʻpligi tufayli, uning fonografiklik xususiyati ochiq koʻrinmay qoladi. Arabcha soʻzlarning boshida va oxirida kelganda alif ( ا ) ham sof unli tovushni ifoda qilmaydi, ‘aza’, ibtido soʻzlaridagi kabi hamza ( ء ) bilan qandaydir bir toʻsiq bilan aytiluvchi chala unli tovushni bildiradi. Hozirgi yozuvimizdagi kabi eski oʻzbek yozuvida ham harflar oʻzaro bir-birlari bilan qoʻshib yoziladi. Qoʻshib yozish talabi bilan yoki qoʻshib yozish natijasida harflar soʻzning qaysi oʻrnida kelishiga qarab turlicha koʻrinishlar kasb etadi: soʻzning boshida kelsa – bir xil, soʻz orasida kelsa – ikkinchi xil, soʻz oxirida kelsa – uchinchi xil. Hammasi boʻlib toʻrt xil

Maʼlum tarixiy sabablarga koʻra, arab alifbosi Oʻrta Osiyo xalqlarining barcha yozuvlarini asta-sekin siqib chiqardi. Arab yozuvida bitilgan eng eski turkiy tillar yodgorligi («Qutadgʻu bilig»ning ikki nusxasi va «Devonu lugʻotit - turk» asari) XI asrga taalluqlidir.

O'rta Osiyodagi boshqa xalqlar singari o'zbek xalqining bunyodga kelganidan beri yaratilgan yodgorliklari ya'ni ma'naviy merosining deyarli hammasi mana shu arab alifbosida bitilgan. Mashhur shoiru nosirlar, muarrixu mutarjimlarimizdan: Maxmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Alisher Navoiy, Bobur, Ogahiydardan tortib, Abdulla Qodiriy, Fitrat, Cho'lponlarning eng yaxshi asarlarigacha, Beruniy, Narshaxiy, Rashididdin Votvot, Bayhaqiylarning o'lkamiz tarixiga oid mumtoz asarlarining barchasi arab yozuvida bitilgan. Bulardan tashqari tibbiyot, riyoziyot, xandasa, kimyo, ilmi nujum, jug'rofiya kabi fanlar tarixiga oid qimmatli manbalar ham mana shu yozuvda saqlanib qolgan. O'z xalqi tarixini, o'tmish adabiyotini chuqur idrok qilish niyatida bo'lgan har bir kishi arab alifbosi asosida eski o'zbek imlosidan boxabar bo'lish lozim. Zero, biz o'tmish merosimizni qanchalik puxta bilsak, bugungi kunimiz qadrini, mazmunini shu qadar teranroq anglab etamaiz.

Shuni mamnuniyat bilan ta'kidlab aytishimiz lozimki, mustaqillik sharofati ila xalqimiz o'rtasida tariximizni unutilgan nuqtalariga e'tibor kuchaydi. Ayniqsa, o'tmishda yaratilgan ma'naviy boyliklarni o'z yozuvimizda o'qish istagi ortib ketdi. O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi haqidagi Qonun o'z ona tilimizni o'rganishga bo'lgan extiyoj va qiziqishni yanada orttirdi. Mazkur Qonunda eski yozuvni o'rganish maxsus moddada belgilab qo'yilgan. Bularning natijasi o'laroq shu kunlarda prezidentimiz tashabbuslari va respublikamizdagi ko'plab sharqshunos, manbashunos, tarixchi, adabiyotshunos olimlarning say-harakatlari ila arab yozuvidagi ko'plab diniy, ilmiy va boshqa mavzulardagi mumtoz asarlar hozirgi lotin yozuvi asosidagi o'zbek alifbosiga ko'chirilib kitob shaklida nashr qilinmoqda.

Tayanch so'z va iboralar:

1. Bitiklar.
2. Arab yozuvi.
3. Qo'lyozmalar.
4. Nasx.
5. Xattotlar.
6. Mumtoz adabiyotlar.

Nazorat uchun savollar:

1. Eski o'zbek yozuvi fani nimani o'rgatadi?
2. Eski yozuvda yozilgan qanday mumtoz asarlarni bilasiz.
3. Eski o'zbek yozuvi fanining vazifalari nima?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. «O'qish kitobi». T. SHermammedov, F. Abdullaev. T- 1994.
2. «Fors tili» M.Abdusamatov. T-1996.
3. «Arab tili grammatikasi». N.Ibrahimov, M.Yusupov. T-1997.

### **Eski o'zbek yozuvidagi harflar, harakatlar, belgilar va ularning o'ziga xos xususiyatlari.**

Reja:

1. Arab alifbosi haqida tushuncha.
2. Arab alifbosiga keyin qo'shilgan harflar.
3. Arab alifbosining o'ziga xos tomonlari.
4. Harakatlar.
5. Belgilar.

Ma'lumki, muayyan bir tildagi tovushlarni ifodalovchi harflar ikkinchi bir tilga tegishli bo'lgan ayrim tovushlarni ifodalashga hamisha ham qodir bo'lavermaydi. Tabiiyki, bunday hollarda ikkinchi tilga tegishli boshqa boshqa harflarni qabul qilish zarurati tug'iladi. VIII asrdan boshlab arab alifbosini o'z yozuvi sifatida qo'llab kelgan forsiy xalqlar arab alifbosiga o'z tillaridan ayrim tovushlarni ifodalovchi to'rtta چ پ گ ژ harflarni qo'shganlar. Shuning uchun ham arab alifbosidagi 28 harf 32 taga etgan. Eski o'zbek yozuvida ham uzoq davrlardan beri ana shu 32 harfdan foydalaniladi. Eski o'zbek yozuvida xat o'ngdan chapga tomon yoziladi. Harflarning bosma va yozma shakllari bo'lmaydi. Shuningdek, bosh harflar va tinish belgilari umuman ishlatilmaydi. Lekin so'nggi paytlarda vergul, so'roq belgisi va nuqta ishlatilmoqda. Ilgari eski yozuvda bo'g'in satrdan-satrga ko'chirilmagan. Bo'g'in ko'chirish lozim bo'lgan taqdirda yo ko'chiriladigan bo'g'inning so'nggi harfi (yoki harflari) yuqoriga chiqarilib, qayirib qo'yilgan, yo satr to'lmay qolsa joy ochiq qolmasligi uchun so'zni oxiridagi yoki qaysidir o'rtasidagi harf cho'zib yozilgan.

So'zning biror qismi sig'may qolsa, satr oxiriga tiqishtirib yozilgan. Biroq hozirgi kunlarda eski yozuvda chiqayotgan gazeta va jurnallarda satrdan-satrga ko'chirish hollari mavjud.

Mavjud 32 harfdan 25 tasining 4 tadan alohida, so'z boshidagi, so'z o'rtasidagi va so'z oxiridagi ko'rinishlari bor.



Qolgan ettita harf esa 2 ko'rinishli. Boshqacha aytganda, alohida ko'rinishi bilan so'z boshidagi ko'rinishi va so'z o'rtasidagi ko'rinishi bilan so'z oxiridagi ko'rinishi bir xildir.

Ikki ko'rinishli harflar odatda o'zidan keyingi harfga qo'shilmaydi, bu esa eski yozuv orfografiyasida o'ziga xos murakkablik tug'diradi. Unli tovushlarning ayrimlari, aniqrog'i qisqa unlilar yozuvda aks etmaydi. Ikki va uch nuqtali harflarda nuqtalar shaklida turli o'zgarishlar sodir bo'lgan. ح harfining tagiga uning shu shakldagi harflardan farqlash va yumshokrok talaffuz etilishini anglatish maqsadida ء belgisi shaklida belgi qo'yib ketilgan hollar ham ko'p uchraydi. ا harfi so'z boshida ~ belgisi bilan kelsa yoki ع harfidan so'ng ا kelsa cho'ziq unli «o» tovushini ifodalaydi. Ko'p hollarda so'z o'rtasida va oxirida kelgan ا cho'ziq «o», so'z o'rtasida va oxirida kelgan و cho'ziq «u» va «o'» hamda so'z o'rtasida va oxirida kelgan ى cho'ziq «i» va «e», ba'zi hollarda so'z oxirida «o» tovushlarini ifodalaydi. ء harfi so'z oxirida kelganda ko'pincha «a» unlisini va ba'zan kabi so'zlarda «i» tovushini ifodalaydi. harfi so'z oxirida «i» va «y» tovushlarini ifodalab kelganda ko'rinishi turlicha bo'lib o'zgarib ketishi mumkin. خواجه kabi so'zlarda و harfi yozuvda ifodalansa ham talaffuz qilinmaydi.

### ESKI O'ZBEK ALIFBOSI

Harfning nomi	Harfning hozirgi ko'rinishi	Harflarning yozilishi			
		So'z oxirida	So'z o'rtasida	So'z boshida	Yolg'iz holda
Alif	O,a	ا	ا	ا	ا
Be	B	ب	ب	ب	ب
Pe	P	پ	پ	پ	پ
Te	T	ت	ت	ت	ت
Se	S	س	س	س	س
Jim	J	ج	ج	ج	ج
Chim	Ch	چ	چ	چ	چ
Ho-ye hutti	H	ح	ح	ح	ح
Xe	X	خ	خ	خ	خ
Dol	D	د	د	د	د

Zol	Z	ذ	ذ	ذ	ذ
Re	R	ر	ر	ر	ر
Ze	Z	ز	ز	ز	ز
Же	ж	ژ	ژ	ژ	ژ
Sin	S	س	س	س	س
Shin	Sh	ش	ش	ش	ش
Sod	S	ص	ص	ص	ص
Zod	Z	ظ	ظ	ظ	ظ
To	T	ط	ط	ط	ط
Zo	Z	ظ	ظ	ظ	ظ
'ayn	-	ء	ء	ء	ء
G'ayn	G'	غ	غ	غ	غ
Fe	F	ف	ف	ف	ف
Qof	Q	ق	ق	ق	ق
Kof	K	ك	ك	ك	ك
Gof	G	گ	گ	گ	گ
Lom	L	ل	ل	ل	ل
Mim	M	م	م	م	م
Nun	N	ن	ن	ن	ن
Vov	V	و	و	و	و
Ho-ye havvaz	H	ه	ه	ه	ه
Yo	Y,I,E	ي	ي	ي	ي

### Harakatlar.

Harakatlar tilshunoslikda diakritik belgilar deb yuritiladi. Ular arab yozuvida unilarni ifodalashning muhim usullaridandir. Ular odatda qo'lyozma asarlarda tushirib qoldiriladi. Lekin ayrim manbalarda, masalan: «Devoni lugotit-turk» (Turkiy til haqida arab tilida ma'lumot berilgani uchun) va «Qur'oni Karim» da (Arab bo'lmagan xalqlarga tushunarli bo'lishi uchun) yozuv harakatlar bilan yozilgan.

Unli tovushlarni ifodalovchi harakatlarning birinchisi arab tilida «fatha», fors tilida «zabar» deb ataladi va u «a» unlisini ifodalaydi. Ikkinchi harakat arabchada «kasra», fors tilida «zer» deb nomlanib, «i» unlisini ifodalaydi. Uchinchi harakat arabchada «damma», forschada «pesh» deb nomlanadi va «u» unlisini ifodalaydi.

Dunyodagi aksar tillarda unli va undosh tovushlar va shunga mos holda qo'llanadigan harfiy belgilar mavjud. Garchi arab tilida ham unli va undosh tovushlar bo'lsa-da, unli tovushlarning hammasi ham yozuvda ifodalanavermaydi. Arab tilida qisqa unli talaffuz etiladi-yu, yozuvda tushib qoladi. Arab alifbosida qisqa unli belgilar ifodalovchi maxsus harflar yo'q, biroq ba'zi bir belgilar ularni ifodalashda ishlatiladi va ular harakatlar deb nomlanadi. Harakatlar tilshunoslikda diakritik belgilar deb yuritiladi. Harakatlar – arab yozuvida qisqa unli tovushlarni ifoda etishning muhim usullaridan biridir. Ular, odatda, yozuvda ifodalanmaydi. Harakatlarning yozuvda ifoda etilmasligi o'qishni qiyinlashtiradi. Arabcha so'zlarni noto'g'ri talaffuz qilish gunoh sanalgan. Shu sababli matnni boshdan oxirigacha harakatlar bilan berish, xususan, «Qur'on»da ko'zga tashlanadi. Unda arab satr osti, usti belgilari va harakatlar o'qish va talafuzdagi chalkashliklarni bartaraf qilish uchun to'liq yozilgan. Shuningdek, yozuvdagi bu tartib XI-XIV asrlarda O'rta Osiyoda ko'chirilgan ayrim adabiy, badiiy, ilmiy manbalarda, aniqrog'i, tilga oid kitoblarda ham uchraydi. Bevosita tilga oid tadqiqot bo'lgan M.Qoshg'ariyning «Devoni lug'atit turk» asaridagi so'zlar ham harakatlar orqali berilgan.

**Fatha yoki zabar.** Unli tovushlarni ifodalovchi harakatlarning birinchisi belgisi bo'lib, qisqa a unli tovushini ifodalash uchun ishlatiladi. Bu belgi arab tilida fatha, fors tilida esa zabar deb nomlanadi. So'z boshida qisqa a unlisi alif harfining ustiga zabar belgisini qo'yish orqali ifodalanadi. Masalan: Adham adab so'z boshida qisqa a unlisi alif harfining ustiga zabar belgisini qo'yish orqali ifodalanishi bilan bir qatorda ayn harfining ustiga zabar belgisini qo'yish orqali ham qisqa a unlisi ifodalanadi. Masalan: azim, adolat so'z o'rtasida qisqa a unlisi o'zidan oldin kelgan undosh harfning ustiga zabar belgisini qo'yish orqali ifodalanadi. Masalan: qalam, daftar so'z oxirida hoyi havvaz harfi undosh harfidan keyin kelsa, a unlisini ifodalaydi **Kasra yoki zir.** Unli tovushlarning ifodalovchi harakatlarning ikkinchisi belgisi bo'lib, qisqa i unli tovushini ifodalash uchun ishlatiladi. Bu belgi arab tilida kasra, fors tilida esa zir deb nomlanadi. So'z boshida qisqa i unlisi alif harfining ostiga zir \_ belgisini qo'yish orqali ifodalanadi.

Masalan: **ا** **كوام** Ikrom so‘z boshida qisqa i unlisi alif harfining ostiga zir \_ belgisini qo‘yish orqali ifodalanishi bilan bir qatorda ayn harfining ostiga zir belgisini qo‘yish orqali ham qisqa i unlisi ham ifodalanadi. Masalan: **و** **ishq** , ilm so‘z o‘rtasida qisqa i unlisi o‘zidan oldin kelgan undosh harfning ostiga zir belgisini qo‘yish orqali ifodalanadi. Masalan: hirs , milk **هك** so‘z oxirida qisqa i unlisi uchramaydi.

**Zamma yoki pish.** Unli tovushlarning ifodalovchi harakatlarning uchinchisi belgisi bo‘lib, qisqa u unli tovushini ifodalash uchun ishlatiladi. Bu belgi arab tilida zamma fors tilida esa pish deb nomlanadi. So‘z boshida qisqa u unlisi alif harfining ustiga pish **ا** belgisini qo‘yish orqali ifodalanadi. Masalan: ummat , umid. Shuningdek, ayn harfining ustiga pish belgisini qo‘yish orqali ham qisqa u unlisi ham ifodalanadi. Masalan: uzr , umr so‘z o‘rtasida qisqa u unlisi o‘zidan oldin kelgan undosh harfning ustiga pish belgisini qo‘yish orqali ifodalanadi. Masalan: hunar, mulk **هك** So‘z oxirida qisqa u unlisi uchramaydi.

**CHO‘ZIQ UNLILAR** Eski o‘zbek tilida va unga asoslangan eski o‘zbek yozuvida bitilgan manbalarda fors va arab tilidan o‘zlashgan so‘zlarda qisqa unlilar bilan bir qatorda cho‘ziq unlilar qo‘llangan. Qisqa unlilar yozuvda aks ettirilmagan bo‘lsa, cho‘ziq unlilar yozuvda to‘liq o‘z ifodasini topgan. a, e, o‘ unlilari qisqa, i, o, u unlilari esa cho‘ziq unlilardir. Ularning biri o‘rnida ikkinchisini ishlatish: qisqa o‘rinlarda cho‘ziq unlilarni ishlatish so‘zning ma’nosiga putur etkazgan yoki so‘zning buzib talaffuz etilishiga olib kelgan. Cho‘ziq unlilar yozuvda asosan uchta vositachi harf **ا**) alif) **و** (vov), **ي**) yo) harflarini qo‘llash orqali ifodalanadi.

#### Belgilar

**SATR USTI BELGILARI** Yuqorida so‘z yuritilgan fatha (zabar), kasra (zir) va zamma (pish) ham arab satr ostki va ustki belgilari tarkibiga kiradi, lekin ular faqat yozuvda aks etmagan qisqa unli tovushlarni ifodalashda qo‘llaniladi. O‘qish, yozish va to‘g‘ri talaffuz qilishga yordam beruvchi Yana bir necha belgilar ham borki, ular ham yozuvda juda kam hollardagina qayd etiladi. Bunday belgilarga quyidagilar kiradi: 1. Tashdid (**جگسييس**) . Tashdid ikkilantirish degan ma’noni anglatib, so‘z tarkibidagi undoshlarning ustiga qo‘yiladi. Tashdid belgisi tushgan

undosh kuchaytirilgan va ikkilantirilgan holda talaffuz etilishi lozim. Bu belgi ko‘pincha tilimizga arab va fors tillaridan o‘zlashgan so‘zlarga qo‘yiladi. Yozuvda yonma-yon kelgan bir undoshni ikki bor takrorlash arab alifbosi qoidasi bo‘yicha mumkin emas. Arab yozuvida qo‘sh undoshli so‘zlar kelganda o‘sha undoshning biri yozilib, uning ustiga tashdid belgisi qo‘yiladi va shu orqali so‘zda ikkita bir xil tovush borligi anglashiladi. Masalan: َناققوش, attori , mahalla, makkor Ba’zi hollarda tashdid belgisining ustiga fatha yoki zamma belgilari qo‘yilishi ham mumkin (عَـّـة). (Bu esa har ikkalasini ham o‘qish zarurligini bildiradi. Buning uchun avval tashdid ostidagi undoshni takrorlab so‘ngra tashdid ustidagi harakatni o‘qish lozim. Masalan: avval, Muhammad , tabassum, muhabbat tarkibida qo‘sh undoshi mavjud bo‘lgan turkiy so‘zlar, jumladan, o‘zbekcha so‘zlar arab grafikasida yozilganda, tovushlarning miqdoriga ko‘ra yozamiz. Masalan: qatti , sakkizِ . So‘zlarga ba’zan qo‘shimchalar qo‘shilganda o‘zakdagi undosh bilan birga qo‘shaloq undosh hosil qilishi mumkin. Bunday hollarda ular yozuvda to‘liq yoziladi.

**Tanvin.** Bu ham arab satr usti belgilaridan biri bo‘lib, faqatgina arabiy so‘zlardagina ishlatiladi va yozuvdagi shakli quyidagi ko‘rinishlarda bo‘ladi. َtanvin fatha, ِtanvin kasra va tanvin zamma. Tanvin ko‘pincha so‘z oxirida kelib, taglik vazifasida olingan alif harfining ustiga ikkita zabar ko‘rinishidagi chiziqcha qo‘yish orqali hosil qilinadi. Tanvin belgisi talaffuzda an tovush birikmasini beradi. Masalan, taxminan , masalan .

Arab tilidan o‘zlashgan so‘zlar tanvin belgisini olib, ravish so‘z turkumiga kiradi. Tanvin belgisi yozuvda tushib qolishi mumkin, lekin talaffuzda saqlanadi. Shu sababli so‘z oxirida tanvin belgisiga taglik vazifasini bajarib kelayotgan alif o tarzida o‘qilmaydi.

3. **Sukun** (.Sukun arabcha so‘z bo‘lib, to‘xtab turish, tinchlik, orom degan ma’nalarni bildiradi. Bu belgi ba’zan sokin deb ham yuritiladi. Uning asosiy vazifasi bo‘g‘inning yopiq ekanligini bildirishdir. Sokin belgisi undosh harf ustiga qo‘yiladi va shu undoshdan so‘ng unli yo‘q ekanligini bildiradi.

4. **Hamza belgisi** .Bu belgi o‘zining vazifasiga asosan quyidagilardan iborat: a)

ikki unli qator kelganda ularni ajratish uchun yoziladi. Masalan: ʻsharoit ajoyib, gʻaroyib oila b) boʻgʻinni ajratish uchun qoʻllanadi. Masalan: masʻuliyat masʻala , taʻsis, taʻkid v) forsiy izofiy birikmalarda agar aniqlanmish qisqa i unlisi bilan tugallangan boʻlsa, hamza belgisi shu harfning ustiga qoʻyiladi. Shajarai turk ,nuqtai nazar

5. **Vasla.** Bu belgi arabiy izofalarda ishlatilib, al aniqlik artikli ustiga qoʻyiladi. Vasla soʻzi arabcha soʻz boʻlib, qoʻshish degan maʼnoni bildiradi. Demak, vasla belgisi qoʻyilgan al aniqlik artikli toʻla holda oʻqiladi. Agar al aniqlik artikli ustida vasla belgisi qoʻyilmasa, biz faqatgina artiklning a harfini oʻqib, keyingi www.ziyouz.com kutubxonasi 70 kelayotgan soʻzning birinchi tovushini ikkilantirib oʻqiymiz. Bu haqda shamsiy va qamariy harflar va izofa boʻlimlariga qarang. Yuqorida tilga olingan belgilar yozuvda ifoda etilmasligi mumkin, lekin bu belgilarning xususiyatlarini toʻliq oʻzlashtirmogʻimiz lozim.

اهزجه أيل فبى اثغل آهگىبى بيئى ثوكذ كُپ ِيلغئلا ثئيبى أئيبى ئوكذ ثئو ٲبهيويي أچب ئئياله الر حركت  
«A زهاهي كا ۳ ا ئئبلا ِى يهههي ازيلا ئو, نثوي هي نثو هئوذ هيگ كيبي ِى گوا كه آواى ئئو  
ئى ريوگكوي ازيلا ئو, ارين بيوگه كالههي الة» «A» «A» كيت ربيوبكى كهگئلا اچوبئگيى آيى كيت»  
نيو ئيباكوبى ازيلا ئو, ُن ربه ٲوي ُن ٲو ه فة كزئبئلا اهلل كالم» «I, E» كيواكوي چب ۹ لا ايزيو  
ِيبك بئلك ٲهين ٲي عبين زهاه ازيلا ئو, ِبلئگى ائگب ئلب النم ٲي الئگى ئو \*يلأى ٲا ٲوبئلين  
كهگئلا ئئو چب ۹ ي آي اويلا الهى ئو بيد آهرئبلا اللآ الهى ِياههبي هي ٲكي هي چبلئگى ٲهين كيت ٲيچ  
هيئگ عيبلا ئبه الل فيل ئئو زليل ٲاين آلي ائكى ئئوى ِكى اللآ الهى ئب ۹ الگى كئبى ئغيو زفزلئگ  
هالين ئئو ئبه عبين ازل لا ال ِلل ٲهين كن ئله الل ئيززب هيچيكا بيى كاى رٲب ٲكلين آيو آيو كئجم  
ِلل هٲبكه ِبالهى ئ آيالهبى كُپ آئبئئ ئئو ِئى ائكى هئئبلا ركواه ركواه آيالئك

Yuqoridagi harakatlardan tashqari oʻqish, yozish va toʻgʻri talaffuz qilishga yordam beruvchi yana bir qancha belgilar bor, ular ham juda kam hollardagina kayd etiladi.

1. Tashdid ʻ (ikkilantirish degan maʼnoda) faqat undosh harflar ustiga qoʻyiladi. Tashdid olgan harf 2 marta talaffuz etiladi.

2. Hamza ء belgisi odatda harflari ustiga qoʻyiladi yoki yolgʻiz keladi. U, asosan, arab tilidan kirgan soʻzlarda uchraydi va arab tilida u muayyan undosh tovushni ifodalaydi. Lekin ء oʻzbek tilida bu xususiyatni

yo'qotgan va «ayn» kabi ramziy bir belgiga aylangan.

3. «An» َ — tanvini belgisi faqat so'z oxirida keluvchi undosh ustiga qo'yiladi.

4. Madda ~ belgisi faqat so'z boshida kelgan <sup>1</sup> ustida keladi. ~ olgan alif «a» tarzida emas, balki «o» tarzida talaffuz etiladi.

5. Vasla belgisi asosan arab tilida ِ aniqlik artikli ustida keladi. Odatda vasla bilan kelgan ِ yozuvda aks etishiga qaramasdan talaffuzda tushib qoladi va undan keyin kelgan harf «tashdid» bilan ikkilantirilib o'qiladi.

Tayanch so'z va iboralar:

1. Qo'lyozma mabalarining tashki belgilari. 2. Qo'lyozmalar. 3. Diakritik belgilar. 4. Madda 5. Vasla 6. Tashdid.

Nazorat uchun savollar:

1. Arab alifbosidagi faqat arabcha so'zlarni ifodalaydigan harflar qaysi?
2. Arab alifbosiga keyin qo'shilgan harflar qaysi?
3. Qanday belgilarini bilasiz?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. E. Talabov, «Arab tili» 1994-T
  2. N. Ibrohimov, M. Yusupov, «Arab tili grammatikasi», 1997-T
  3. M. Abdusamatov, «Fors tilida» 1996-T
- A. Avloniyning «Birinchi muallim» kitobidan.

## XURUS ILA BO'RI

Bir bo'ri daraxt ustida o'ltirgon xurusni ko'rub, tutub yemak uchun daraxt ostiga keldi. Hiyla birla bechora xurusni daraxtdan tushurmoqchi bo'lub: «Eu, xurus o'rtog'! Man sanga bir yaxshi xabar kelturdim. Hayvonlar ila qushlar arosinda sulh bo'ldi. Bir-biriga zulm qilmasga, biri ikkinchisin tutub yemasga qaror verildi. Kel birodar, rastga tush! Bir-birimizga do'st bo'lib, birga o'ynashaylik», dedi. Xurus bo'rining so'ziga aldanadurg'on darajada nodon

va ahmoq bo'lmaganligidan bo'riga boqub, dediki: - Do'stim, so'zing rostdur, to'g'ridur. Lekin bir oz sabr qil, sandan boshqa ikki it ham sulh xabarin ketururlar. Alar ham kelsunlar. Hammamiz birga o'ynashurmiz, — dedi. Vo'ri xurusdan bu so'zni eshitgan zamon dumini orqasig'a qo'yub qocha boshladi. Xurus: «No, birodar, nima uchun qochursan, orada sulh bor-ku?» - desa, bo'ri: - Oh do'stim! Bu zolim itlar sulhni buzgong'a o'xshaydur, - deb qochub ketdi. Xurus orqasidan «quq... ququ...» deb qichqirub qoldi. Aql egasi hiylaga aldanmagay, Hiylagarning hiylasi boshin yegay. Do'st ila dushman so'zining farqi bor, Fahm etar har kimki, bo'lsa hushyor.

### **Xat turlari, ligaturalar, imlosi umumiy qoidaga tushmaydigan so'zlar.**

Reja:

1. Xat turlari.
2. Bosma va qo'lyozma yozuvlardagi farqlar.
3. YOzma manbalardagi o'zaro tafovutlar.
4. Nasx va nasta'liq xatlari orasidagi o'zaro farqlar.
5. Ligaturalar.
6. Imlosi umumiy qoidaga tushmaydigan so'zlar.

Mashxur xattotlar o'z xusnixatlarini chiroyli va jozibador bo'lishi uchun arab alifbosidagi har bir harfga saykal berishga intilganlar. Bu esa arab yozuvini turlicha yozilishiga olib kelgan. Qolaversa arab yozuvidagi bejirimlik kotiblar siyox va qog'ozni iqtisod qilish maqsadida qisqa bir shaklda yozishga intilishlari ham harflarning o'zgarishiga olib kelgan. Shuning uchun ham o'tmish davrlarda saqlanib qolgan kitoblarning bosma hamda qo'lyozma nusxalari o'rtasida katta tafovut bor. Xatto bu farqni qo'lyozmaning nusxalari orasida ham ko'rishimiz mumkin. Buning natijasida arab xatlari bir necha turga bo'lingan. Ular qo'yidagilar:

1. Nasx yozuvi.
2. Nasta'liq yozuvi.
3. Suls yozuvi.



4. SHikasta yozuvi.
5. Devoniy yozuv.
6. Kufiy yozuv.
7. Rayhoniy yozuv.
8. Boburiy yozuv.
9. Riqo' yozuvi.
10. Ta'liq yozuvi va hokazo.

Bu yozuvlar ichida «nasx» yozuvi eng ko'p tarqalgan bo'lib, barcha xat turlari uchun asos bo'lgan. Bosmaxonalarda chiqqan va chiqayotgan barcha nashrlar mana shu yozuvda chop qilinmoqda.

O'rta Osiyoda XX asr boshlariga qadar barcha qo'lyozma asarlar toshbosma usuli bilan nashr etilgan bo'lib, ularning barchasi «nasta'liq» usulida yozilgandir. «Nasta'liq» yozuvi bu turlar ichida oson o'qilishi va chiroyli yozilishi bilan ajralib turadi. «Nasta'liq» yozuvi bilan «nasx» xati o'rtasida nazariy jihatdan farq yo'q. Chunki u «nasx» hamda «ta'liq» xatlarining o'zaro birikuvida vujudga kelgan. Lekin ular orasida shakl jihatidan qisman farq bor. «Nasx» yozuvida harflar odatda tik yoziladi, «nasta'liq» yozuvida esa yuqori qismi o'ng va qo'yi qismi chap tomonga biroz moyil bo'ladi.

«Nasx» yozuviga xos bo'lgan harflarni bir satr ustiga yozish va o'zaro yonma-yon ulanishi «nasta'liq»da yo'qoladi. ش، س harflari tishsiz yozilishi mumkin. ر، ز، ژ harflarining so'z oxiridagi shakli o'zidan oldingi harfga burchak hosil qilib emas, bevosita ulanib ketishi mumkin. Ba'zan u yoki bu harfni cho'zib yozish natijasida u tishsiz yozilgan «sin» harfiga o'xshab ketishi mumkin.

Kufiy va suls xatlari boshqalariga qaraganda o'qilishi va yozilishi jihatidan bir muncha murakkab. Bu xatlar ko'pincha imoratlar, me'morchilik yodgorliklari peshtoqiga, qabr toshlariga yozilgan. Arabcha kitoblarning muqovalariga ham ko'pincha ularning nomlanishi «suls» xatida yozilgan.

#### Ligaturalar.

Ligatura degan so'z eski darsliklarda uchramaydi. Bu termin keyingi paytlarda qo'llanila boshlangan. Bu so'z harflarni yozish san'ati degan ma'noda

ishlatiladi. Ma'lumki, arab yozuvi azaldan san'atning bir turi bo'lib kelgan. CHiroyli yozish mahoratini egallash uchun kishilar juda uzoq muddat mehnat qilganlar va nihoyat katta san'atkor xattotlar bo'lib etishganlar. CHiroyli yozishga intilish

oqibatida harflarni tug'ri yozish qoidalaridan chetga chiqish hollari paydo bo'lgan. va ana shu chetga chiqishlar keyinchalik qoidaga aylanib qolgan. Bunday ligaturalar ط، ظ، ص، ض، گ، ک، ل

harflaridan keyin «alif» harfi kelganda uchraydi. Shuningdek ح، ج، چ harflari ketma-ket kelganda yonma-yon yozilmasdan, avvalgi harf keyingi harfning ustiga yozilishida uchraydi. So'zning boshida kelgan ي، ن، ث، ب، پ، ت، م harflari ham o'zidan keyi kelgan ح shaklidagi harfning oldida emas, ustida yoziladi.

LIGATURALAR Arab alifbosidagi kof, gof va lom harflaridan so'ng alif kelganda birga qo'shib o'ziga xos qo'rinishga ega bo'ladi. Bunday harflar ligaturalar deb yuritiladi. O'zbek tilida bu shakldagi harflarni ba'zi o'quv adabiyotlarida qo'shaloq harflar deb ham yuritiladi. گب+ک la, lo کب+ب ga, go کب+ک ka, ko Shuningdek, gof harfi lom harfi bilan yonma-yon kelganda qo'shaloq holda yoziladi. (ک+ل : کل Gof harfi aksar hollarda yuqoridagi chiziqchasiz yoziladi.) Ular so'zlarda quyidagi ko'rinishlarda aks etadi: الی گلبه كالهام Izohli so'zlar الثو أیى بللاق الل باه الل ثبالاله گلال ككال الجبى الثو كل گلباه ایگبه كبرت dilorom dilga orom beruvchi, Dilorom الة qallob aldamchi هكال dilovar botir, qo'rqmas islom islom الم ثبال بولو yuqori, baland Nun va gof harflari birikmasi Arab alifbosiga asoslangan eski o'zbek yozuvida H (ng) sonor tovushi hozirgi yozuvdagi kabi ikkita harf ی va گ yordamida birikma shaklida qo'llangan. H tovushi ishtirok qilgan so'z va qo'shimchalar گ tarzida yozilgan va o'qilgan. Masalan: گ؛ لَهگ ثبكهگ اُگ َّگ - ثوگ هگ كاگ چبگ ثبگ هبگ َّگ َّگ ربگ : گ - . عوبه زيويي ثبييگ ثيا\*لياى؛ فلاييگ فاهم - يگ : 67 www.ziyouz.com kutubxonasi 1-topshiriq. Lom-alif, kof-alif va gof-alif harfiy birikmalarini har birini mashq daftaringizga bir necha qatordan yozing. 2-topshiriq. Berilgan so'zlarni eski o'zbek yozuviga o'giring. Bugun, butun, ko'rik, eshik, terak, gulzor, gugurt, gard, gulchi, gulari, agar, elak, dalil, kelin, kabutar, barg,

norin, nodir, gap, kapalak, kamalak, kiprik. 3-topshiriq. Berilgan harflarni alifbodagi oʻrni boʻyicha joylashtiring: د م ك ل ط م ك م ا ي ژ ڤ ئ س د 4-topshiriq. Berilgan gaplarni oʻqing, ligaturalarni aniqlang va mashq daftaringizga koʻchirib yozing. كُپ بيوكاي آ الثوايلي ثبي گللاهگب اُابي ثلثيت چيوايلي بيوا ثبهكي گلياھگب الثو كيزلي آليت آبيگب گللاهئي ثبهچب ريوكبي گلياھكاي الثو ريوكبي گل

### **Imlosi umumiy qoidaga tushmaydigan soʻzlar.**

Eski yozuvda koʻpgina soʻzlar borki, ular bizning tilimizda arab va fors-tojik tillaridan kirgan. Oʻsha soʻzlar bizning tilimizda baʼzan yozilganidek, baʼzan esa oʻsha tillarda qanday talaffuz qilinsa, ushunday talaffuz qilinadi, yaʼni ularning talaffuzi bilan yozilishi oʻrtasida maʼlum farqlar mavjud.

Masalan: عيسى ، ليلي ، موسى kabi soʻzlarda soʻz oxirida kelgan «i» emas, «o» tarzida oʻqiladi. Agar bunday soʻzlarga qoʻshimcha qoʻshilsa, oʻsha qoʻshimcha alohida yozilishi kerak yoki soʻz oxiridagi ا harfi ga almashtirilishi kerak. Soʻz oxirida kelgan o koʻpincha «a» va baʼzida «i» tarzida talaffuz qilinadi. Bu soʻzlarga qoʻshimcha qoʻshilganda, oʻsha qoʻshimchalar odatda ajratib yoziladi.

Ayrim soʻzlardagi unli tovushlarning ifodalanishi qoidaga mos kelmaydi yoki yozilgan harf talaffuz qilinmaydi.

Tayanch soʻz va iboralar:

1. Nasx. 2. Nastaʼliq. 3. Xattot. 4. Kufiy. 5. Ligatura.
6. Xoyi xavvaz. 7. Iso. 8. Xorazm.

Nazorat uchun savollar:

1. Qanday xat turlarini bilasiz?
2. Nasx va Nastaʼliq yozuvi orasidagi farqlar qanday?
3. Ligatura soʻzining istilox sifatidagi maʼnosi qanday?
4. Imlosi umumiy qoidaga tushmaydigan qanday soʻzlarni bilasiz?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. «U kish kitobi». T. SHermammedov, F. Abdullaev. T- 1994.
2. «Eski oʻzbek yozuvidan metodik tavsiyalar», O.Nosirov, M.Yusupov, N.-

1960.

3. «Eski o'zbek yozuvi». R.Jumaniyozov, T-1989.

**Mavzu: Arab raqamlari. Abjad hisobi.**

Reja:

1. Arab raqamlari haqida tushuncha.
2. Abjad haqida tushuncha.
3. Abjad raqamlari.
4. Abjad hisobini keltirib chiqarish.
5. Poygirning vazifasi.
6. Abjad hisobini bilishning ahamiyati.

**Arab raqamlari.**

Hozirda biz qo'llayotgan raqamlar arab raqamlari deb yuritilsa ham, ular uzoq asrlik taraqqiyot mobaynida shaklan o'zgarishlarga uchragan. Eski o'zbek tili yodgorliklarida sahifani raqamlash - tartiblash ikki usulda namoyon bo'ladi: birinchisi - raqamlar, ikkinchisi poygir.

Arab raqamlari qo'yidagilar:

1-١, 2-٢, 3-٣, 4-٤, 5-٥, 6-٦, 7-٧, 8-٨, 9-٩, 10-١٠

**RAQAMLAR** Raqamlar - arab. هَان – son, nomer)—sonlar ifodalanadigan shartli belgilar. Eng qadimda sonlar so'zlar orqali ifodalangan. Xalqlarning ijtimoiy-xo'jalik hayoti rivojlanishi bilan mukammalroq belgilarga va hisoblash sistemalarini ishlab chiqishga ehtiyoj tug'ildi. Eng qadimgi raqamlar bobilliklar va misrliklarga mansubdir. Misr ieroglif raqamlarida (mil. av 3000-2500 yilda paydo bo'lgan) sonlarni ifodalash uchun maxsus rasm-belgilar, keyinroq ieratik va demotik yozuvlari paydo bo'ldi. Bobil raqamlari (mil. av. 2000 yil boshi) asosan 1, 10, 60 va 100 ni bildiruvchi mixxat belgilari bo'lib, boshqa barcha raqamalar shular asosida ifodalangan. Misr ieratik yozuvidan Yaqin va O'rta Sharqdagi barcha yozuvlar va Yunon-Ioniya yozuvi, shu bilan birga alifboga asoslangan raqamlar kelib chiqdi. Bosma yunon alifbosi slavyan-kirillitsa va harfiy raqamlarga asos soldi. Hozirgi raqamlarning timsollari (nol bilan birgalikda) Hindistonda 5-asrga yaqin yuzaga kelgan. Bungacha Hindistonda kharoshti raqamlari va u bilan

deyarli bir vaqtda brahmi raqamlari bo'lgan. Brahmi raqamlaridan hind gvalior raqamlari kelib chiqdi. Gvalior raqamlari esa arab raqamlariga asos solgan. Arab raqamlari ikki turli sharqiy va g'arbiy (g'ubor) raqamlardan iborat. Sharqiy arab raqamlari Misr va undan sharqdagi arab mamlakatlari, Eron hamda Afg'onistonda qo'llaniladi. G'arbiy arab raqamlari (g'ubor) esa Misrdan g'arbdagi arab mamlakatlarida qo'llaniladi. Evropada 9-asrdan boshlab g'ubor raqamlari tarqaladi va tezda ommalashadi. Sharq mamlakatlarida esa g'ubor raqamlari 19- asrgacha ham keng tarqalmadi. Qadimgi raqamlardan faqat Rim raqamlari hozirgacha qo'llaniladi Hozirgi zamon raqamlarining evolyutsiya jadvali. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi 73 Arab raqamlari – o'nta matematik belgi: 0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9. Bu raqamlar bilan istalgan katta yoki kichik sonni yozish mumkin. Arab raqamlarining ishlatilishida mashhur o'zbek matematigi Abu Abdullo Muhammad ibn Muso Xorazmiyning muhim hissasi bor. Arablar Iroq, Misr va Suriyani istilo qilishguncha yunon alifbosiga asoslangan raqamlardan foydalanganlar. VI-asrdan boshlab arab alifbosi harflari bilan ifodalanuvchi raqamlar qo'llanilgan. Muhammad Xorazmiy Hindistonda kashf etilgan o'n raqamdan iborat pozitsion sistemani o'rganadi, soddalashtiradi, kengaytiradi va birinchi marta arab tilida bayon etadi. Xorazmiy «Arifmetika»si bilan birga bu hind raqamlari arab Sharqiga kirib keladi. Xorazmiyning bu asari arabchadan lotinchaga tarjima qilinib, X-asrda Ispaniyaga, XII-asrda Evropaning boshqa mamlakatlariga tarqaladi va hanuzgacha jahonda mazkur raqamlar arab raqamlari nomi bilan yuritiladi. Arab raqamlarini jahonga tarqatgan Muhammad Xorazmiy ekanligi haqida Abu Rayhon Beruniy o'zining «Hindiston» asarida aytib o'tgan. Eski o'zbek yozuvida hozir arab raqamlari deb atalayotgan (aslida hind raqamlari bo'lsa ham, ommaga arab raqamlari nomi bilan singib qolgan) raqamlardan foydalanilgan. Bu raqamlarning ba'zi shakllari hamda ko'plikni ifoda etish tartibi hozirgi yozuvimiz raqamlari va uning tartibidan katta farq qilmaydi. Agarda sonlar raqamlar bilan ifodalansa, sonlar chapdan o'ngga qarab yoziladi va o'qiladi. Raqamlarni yozish jarayonida avval ko'pliklarni va oxirida birliklarni yozish lozimdir. Masalan: 1 dan 10 gacha bo'lgan sonlar ۱۱ dan 20 gacha bo'lgan sonlar ۱ bir ۱۱ تا ئىو o'n bir ۲ ايکى ikki

۳ ۴ آچ uch ۱۳ آچ آی o'n ikki www.ziyouz.com kutubxonasi 74 uch n'o  
o'n olti ta Alzi ۱۶ olti Alzi ۶ o'n besh ta ۱۵ besh ۵ o'n to'rt ta ۱۴ to'rt  
to'qqiz ta ۹ o'n sakkiz ta ۱۸ sakkiz ۸ o'n etti ta ۱۷ etti ۷  
o'n ۱۰۰ ta ۱۰ O'nliklar Yuzliklar ۲۰ ta ۱۰ o'n to'qqiz ta ۱۹  
۳۰ Arzi o'ttiz ۳۰۰ ni ۳ آچ yuz yuz uch ۲۰ yuz ni ۲۰ yuz  
Alzoy ۶۰ besh yuz ۵۰۰ ellik ۵۰ to'rt yuz ۴۰۰ qirq ۴۰  
etti yuz yuz sakkiz ۷۰۰ etmish ۷۰ yuz olti Alzi ۶۰۰  
ming ۹۰ zabi to'qson ۹۰۰ ni ۸۰ zabi to'qqiz ۸۰۰ ni ۸۰۰  
۱۰۰۰ yuz ۱۰۰ Yozuvda sonlar so'zlar va raqamlar bilan ifoda etilishi mumkin.  
Harflar bilan yozilgan sonlar o'ngdan chapga qarab yozib boriladi va o'qiladi.  
Masalan: ثب يبه چبه ٲ ثيالي ٲ ب هزي ٲ يگ كبئد ٲ ره اي ءود ٲ ثيالي ٲ بيزي ٲ يگ رابلي ريگوي  
\*و ٲ زانكا زابي ني ٲ بكيي ربه ثيلا آبييگ هبي كى ٲ ج ٲ ثيالي ٲ وزى ٲ يگ ٲ بالهي  
(" كاي ثبٲه ٲ ثبٲه ءول اللبي. اويل) ثلٲ بيكب ٲ بزب ايكي اي كا ٲ اليزي

Shuni etiborga olish kerakki, arab raqamlari o'ngdan chapga emas, chapdan o'ngga qarab yoziladi: ۲۳-23, ۴۰۶ -406, ۲۵۶ -256, ۷۸۹-789. Ko'p hollarda sahifalar poygir bilan beriladi. Poygir so'zining lug'aviy ma'nosi qadam olmoq bo'lib, u kelgusi sahifadagi birinchi so'zni tugallanayotgan sahifa ostiga yozib qo'yishni anglatadi. Demak, poygir (ya'ni kayd qilingan so'z) sahifalarni chalkashtirib yubormaslikni oldini oladi. Demak, poygir yozma yodgorliklarda raqamlar ifodalashi mumkin bo'lgan vazifani bajargan.

### Abjad hisobi

ABJAD HISOBI Arab yozuvi o'zining go'zalligi, xushxatligi bilan jahon xalqlarining e'tiborini doimo jalb qilib kelgan. O'tmishda bu yozuv tarixiy yodgorliklar, ulkan inshoatlar, osori atiqalar uchun naqsh, bezak vazifasini ham bajargan. Bulardan tashqari uning yana bir muhim vazifasi bor, u ham bo'lsa arab alifbosining raqam, son ma'nosini ifoda etish bilan bog'liqligidir. Manbalardan ma'lum bo'lishicha, arablar (meloddan 2000 yil ilgari) o'z alifbolarini tuzishda qadimgi yozuvlar bo'lmish finikiya va oromiy yozuvlaridan harflar nomlarini va ular bilan birga har bir harfning raqamiy tengligini ham olganlar. Demak, abjad hisobining tartibi finikiya va oromiy yozuvlaridan kelib chiqqan. Lekin ular

alfavitida harflar soni yigirma ikkita bo‘lib, to‘rt yuzdan keyingi sonlarning ifoda qilinishida oxirgi harf «tav» (arablarda «taun»)ga oldingi harflardan birini qo‘shib besh yuzdan minggacha bo‘lgan son ifodalarini hosil qilganlar (Masalan: tavqof, tavresh, tavshin kabi). Arablar bu usulni biroz takomillashtirdilar. Ular oltita harf ixtiro qilib «saxaz» va «zazag‘» so‘zlarini yasadilar. Bu atamalar besh yuzdan minggacha bo‘lgan son ifodalarini hosil qilishga yordam berdi. Shu tariqa arablarda yigirma sakkiz harfni o‘zida jamlovchi sakkiz atama hosil bo‘lgan. Bular quyidagilar: ۱۰۰۰۹۰۰۸۰۰ ۷۰۰۶۰۰۵۰۰ ۴۰۰۳۰۰۲۰۰۱۰۰ ۹۰۸۰۷۰۶۰ ۵۰۴۰۳۰۲۰ ۱۰۹۸ ۷۶۵ ۴۳۲۱ Mazkur atamalar muayyan bir ma’noni anglatmaydi, ular harflar mujassami xolos. «Abjad hisobi» ana shu atamalarning birinchisi nomiga qo‘yilgan. Harflar vositasida son tushunchasini ifoda etish usuli esa «abjad hisobi» deb atalgan. Bu usul [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi 104 harflar sirasini yod olishda qulay bo‘lgani sabab maktablarda maxsus o‘qitilgan va abjad o‘qiyotgan bolalar «abjadxon» deb atalgan. Abjad hisobi alifbo sirasini o‘zlashtirishdagina emas, balki riyoziyot ilmidagi hisob-kitobni amalga oshirishda ham keng qo‘llangan. Ko‘paytirish jadvalini ifodalash uchun harf nomlarini olib birlashtirib atama yasaganlar va bu atamalar chapdan o‘ngga qarab o‘qilgan. Masalan: «bab» -  $b \times 1 = 2 \times 1 = 2$  «babdu» -  $b \times 2 = 4$  «bajvin» -  $b \times 3 = 6$  «badhu» -  $b \times 4 = 8$  Ko‘rinadiki, ikkinchi ustunda joylashgan harflarning yig‘indisidan ham «abjad» so‘zi yasalmog‘da. Abjad hisobining mazkur usuli qadimda «hisobi jimal» deb ham yuritilgan. Eski o‘zbek yozuvidagi forslar va turklar tomonidan keyinchalik kiritilgan to‘rt harf - ژ؛ چ؛ گ؛ پ borasida abjad hisobi amalga oshirilayotgan matnda ushbu harflar ishtirok etayotgan bo‘lsa hisobda ularning shakldoshlari (ك ط ی) (dan istifoda etilgan).

**IMLO VA TINISH BELGILAR** Eski o‘zbek yozuvidan foydalanishda hamma uchun umumiy bo‘lgan imlo qoidalari mavjud emas edi. Uzoq davrlik tajribadan kelib chiqqan odat va ana’nalar avloddan avlodga o‘tib qoida kuchini saqlab kelgan. Eski o‘zbek yozuvida turkcha-o‘zbekcha so‘zlar imlosiga nisbatan fonetik asos (printsip) talablari kengroq joriy qilingan bo‘lsa-da, imloda tarixiy-ana’naviy

asosga juda katta o‘rin berilgan. Yozma adabiy manbalar orqali tilga behisob arabcha, forsha leksik qatlamlarning kirib kelishi tarixiy-ana’naviy mavqeining ortib borishiga sabab bo‘lgan. Eski o‘zbek tilida so‘z shaklini orfografik an‘analar bo‘yicha to‘g‘ri ifodalash uchun so‘zning tabiatiga uning ko‘rinishiga e’tibor berish talab qilinadi. Biz yozuv orqali ifoda qilmoqchi bo‘lgan so‘z tarixiy-etimologik jihatdan qanaqa so‘z? Turkcha-o‘zbekchami yoki o‘zlashma so‘zmi? Agar turkcha-o‘zbekcha so‘z bo‘lsa, uni fonetik asosda (aytilishiga qarab) qisqa unliklarni ham tegishli harflar bilan ifodalab yozish mumkin: tuzuk رُكُتْ kiprik كىپریك bilim تیلین پریك‘کو Xo‘sh, hozirgi o‘zbek tilida, eski o‘zbek tilida iste’molda bo‘lgan turkiy, forsiy va arabiy so‘zlarni bir-biridan qanday ajratamiz? Buni maxsus qoidasi bo‘lmasa-da, o‘zbek tilidagi turkiy qatlamga mansub so‘zlar, asosan, bosh, ost, qizil, ko‘k, bir, kel, yoz, ur (o‘qib chiqdi, kela qol kabi etakchi va ko‘makchi fe’llardan iborat tarkibli fe’llar, qo‘shma fe’llar sotib oldi, olib keldi, kelib ko‘rdi va b.) kabi bir bo‘g‘inli bo‘lishi, ikkita undosh (ost, ust kabi so‘zlardan tashqari) yoki ikkita unlining qator kela olmaslik xususiyatiga ko‘ra farqlashimiz mumkin. Bundan tashqari, o‘zbek tilidagi son so‘z turkumi, tub fe’llar, olmoshlar (hamma, ba’zi olmoshlari, birgalik va bo‘lishsizlik olmoshlarini hosil qiluvchi hech va har so‘zlari, shuningdek, eski o‘zbek tilida keng iste’molda bo‘lgan kamina, faqir, banda kabi olmoshlar bundan mustasno), sifat so‘z turkumi va boshqa mustaqil va yordamchi so‘z turkumlariga oid bo‘lgan bir bo‘g‘inli so‘zlar turkiy, o‘zbekcha so‘zlar sanaladi va arab alifbosiga asoslangan eski imloda tarkibidagi tovushlarning miqdoriga ko‘ra to‘liq yoziladi. Ot Sifat Son Olmosh Ravish Fe’l Yordamchi so‘z turk. كیل آئی ایلکبهی تھی آ هئی ای یززی ٹک ایبیل رب ۷ آرب ایورب ۆ ۆ ت ایللیک بیگیوهب ابها بهی بی رب 79 www.ziyouz.com تیلالی بیب شونینگдек، turkiy tillarga xos ot, fe’l va boshqa so‘z turkumlariga oid grammatik kategoriyalar, so‘z yasovchi va boshqa affikslar ham to‘liq yoziladi. Ot Sifat Son Ravish Fe’l یزربالی بیزریچی تیزب بیپی آپیو ۹به ی ٹکیوزیو تیگ آیاله ایلا ایچی یزربالی بیب شونینگдек، turkiy tillaridan o‘zlashgan bo‘lsa, bunday so‘zlar tarixiyetimologik asosda, ya’ni o‘sha tilning o‘zida qanday yozib kelingan bo‘lsa, shu tarzda yoziladi. Masalan, rassom



ma'nosidagi «musavvir» so'zini yozish talab qilinganda biz uni تارزیده tarzida yozib qo'ysak ham o'qib tushunish mumkin, ammo bunda imlo buziladi, oktyabr so'zini hozirgi yozuvda o'ktabir deb yozib qo'ygandek qiziq holat yuz beradi. Chunki, «musavvir» so'zi tarixda موصویر yozib kelingan. So'zning tarixiy-ana'naviy tamg'asini qanday qilib tanib olish kerak? O'rganuvchi xodim bu masalada ko'proq odat va ana'naga e'tibor beradi, lug'atlarga tayanib ish ko'radi. Turkcha-o'zbekcha so'zlarning fonetik qurilishi haqida yuqorida ma'lumot berib o'tildi. Turkcha-o'zbekcha so'zlar qolipiga mos kelmaydigan, ularga zid ko'rinishda bo'lgan so'zlarni o'zlashma so'zlar, deb faraz qilamiz va ularning imlosini lug'atlardan qarab bilishimiz va to'g'ri yozishimiz zarur. O'zlashma so'zlardan arab tiliga mansub so'zlar imlosi og'irroq. Eski o'zbek tilida keng qo'llangan «ata» «ato» so'zlariga e'tibor qaratsak. Bu so'zlarning she'riyatdagi o'rni yaqin bo'lishi va shunga ko'ra ular o'zaro yaqin o'qilishi mumkin, ammo imlosi butunlay farq qiladi: (ارب) ata) – turkcha-o'zbekcha so'z, (اب) ato) – arabcha-bag'ishlash, atab qo'yish ma'nosidagi so'z. (بالیغ) balıg') bilan (بالیغ) (bālyg') bir xil talaffuz qilinadi, lekin ular ikki tilga mansub mustaqil shaklli va ikki xil ma'nodagi so'zlardir. Shuningdek, Inson, Ibrohim so'zlarini biz «i» bilan aytamiz, lekin bu so'zlar يئانوا shakllarida alif bilan yoziladi.

Tayanch so'z va iboralar:

1. Abjad. 2. Havvaz. 3. Xutti. 4. Son qiymati 5. Poygir.

Nazorat uchun savollar:

1. Poygirning vazifasi nima?
2. Abjad so'zining ma'nosi xususida.
3. Harflarning son qiymati.
4. Qo'shimcha harflarning son kiymati.
5. Abjad orqali nimalar yoziladi?
6. Abjadni qanday hisoblanadi?
7. Abjadni bilishning ahamiyati.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. «Eski o'zbek yozuvi». R.Jumaniyozov, T-1989

2. «Arab tili» E.Talabov, T-1994
3. A.Navoiy. «Maxbub ul-qulub» T-1991

### **Mavzu: Shamsiy va qamariy harflar. Arab izofasi**

Reja:

1. Shamsiy harflar.
2. Qamariy harflar.
3. Arab izofasi haqida.
4. ال artikli va undan keyin kelgan harflarning talaffuzi.
5. Arab izofasi shaklida keladigan o'zbek atoqli otlari.

Arab tilida ال aniqlik artiklidan keyin kelgan harfga qarab, ال ning ل si talaffuz qilinishiga ko'ra alifbodagi harflar ikki guruxga bo'linadi.

1. SHamsiy (quyosh) harflar - 14 ta ن ل ظ ط ص ض س ش ز ر د ذ ت

2. Qamariy (oy) harflar - 14 ta ي ه و م ك ق ف غ ع خ ح ج ب ا

Biz yuqorida zikr etgan ال o'z navbatida arab izofasining ham bir belgisi hisoblanadi. Arab izofasi aniqlanmish va aniqlovchi qaralmish va qaratkich o'rtasidagi munosabatlarni ifodalovchi tushuncha bo'lib, u ko'pincha eski o'zbek yozuvida asar va joy nomlarida, kishilarning ismlarida ko'zga tashlanadi.

Izofa ko'rsatkichi bo'lgan «al» (ul, il) har doim talaffuz qilinavermaydi, lekin yozuvda albatta kayd etiladi. Undagi ل esa xech kachon talaffuz qilinmaydi. Shuning uchun yozuvda uning ustiga vasla belgisi qo'yiladi undagi ا ning talaffuz qilinishi esa «al» (ul, il) dan keyingi so'zining shamsiy yoki qamariy harflar bilan boshlanishiga bog'lik. Agar «al» (ul, il) dan keyingi so'z qamariy bilan boshlansa, ل to'la talaffuz qilinadi: ملك كلام دار القتون شيخ الاسلام (malik ul kalom, dorulfunun, shayx ul islom). Agar «al» (ul, il) dan keyingi so'z shamsiy harf bo'lsa, usha shamsiy harf tashdid bilan ikkilantirilib o'qiladi, «al» (il, ul) yoziladi, lekin talaffuz etilmaydi: سراج الدين (Sirojiddin).

Hozirgi o'zbek tilidagi juda ko'p atoqli otlar arab izofasi shaklidir va bunday ismlar so'zi bilan boshlanadi yoki النِّصَاءُ، اللهُ، الدِّين (ad-din, Allox, an-nisa) so'zlari bilan tugaydi:

خير النِّصَاءُ ، عبد الله ،كمال الدين (Kamoliddin, Abdullox, Xayrinniso.)

ARAB IZOFASI Arab izofasidagi so'zlarning tartibi ham xuddi fors-tojik tilidagi singaridir, ya'ni arab tilida ham aniqlanmish avval keladi, aniqlovchi esa keyin keladi. Eski adabiy tilimizda arab izofali birikmalari forscha birikmalariga qaraganda ancha kam. Arab izofasining ko'rsatkichi –ul dir. Bu ko'satkich hamma vaqt yozuvda o'z aksini topadi, lekin talaffuzda hamma vaqt ham ul tarzida o'qilavermaydi. 1. Agar aniqlovchining birinchi harfi (tovushi) ط ا ة ط ئ گ ٧ ٣ harflaridan biri bilan boshlangan bo'lsa, ul izofa ko'rsatkichi aniq talaffuz etiladi. Masalan: zarb-ul masal الوصل izofiy birikmasidagi masal so'zining birinchi tovushi m bo'lganligi uchun izofa ul tarzida aniq talaffuz qilinishi kerak. 2. Agar aniqlovchi so'zning birinchi harfi (tovushi) bilan boshlansa, ش ز ر ش ز ر ش ز خ ت ي ل ظ ط - ك پ ظ ul izofasining oxiridagi l tovushi aniqlovchi so'zning birinchi tovushiga singadi, ya'ni assimilyatsiya hodisasi ro'y beradi. Masalan: lison-al tayr (qush tili) بِلْ يُوَال birikmasi yozilgan, lekin lison-ut tayr deb o'qish kerak. Aniqlovchi so'zining birinchi harfi (tovushi) izofaning l harfini o'ziga singdirib olmasa, bunday harflar huruf-ul-qamari (oy harflari) deyiladi. Mahbub-ul-qulub birikmasida q tovushini ifoda etuvchi qof harfi oy harfi bo'lganligi uchun izofa ko'rsatkichi ul assimilyatsiyaga uchramagan. Izofali birikmada izofa ko'rsatkichi bo'lgan ul tovushini o'ziga singdirgan harflar hurufush-shamsi (quyosh harflari) deb ataladi. QAMARIY VA SHAMSIY HARFLAR Arab alifbosidagi harflar ho'rif-ush shams (quyosh harflari) va ho'rif-ul qamar (oy harflari) va ho'rif-ush shams (quyosh harflari) deb ataluvchi ikki guruhga bo'linadi. Quyidagi 14 harf ط ظ ل ي ت خ ز ش ر ش ho'rif-ush shams deyiladi: ظ ك - ط ظ ل ي ت خ ز ش ر ش ho'rif-ul qamar deyiladi. Agar al anqlik artiklidan keyin kelgan so'zning birinchi harfi ho'rif-ush shams «quyosh harflari» guruhsidagi harflardan biri bilan boshlansa, al artiklidagi ل lom talaffuz etilmay, undan keyingi harf tashdid bilan o'qiladi. ذَّل الزوك Nasr-al-din Nasriddin و اللبي

lugʻat-al-turk turkcha lugʻat

Tayanch soʻz va iboralar:

1. Izofa. 2. J' artikli. 3. Qamar. 4. SHams. 5. Vasla.
6. Abd. 7.Niso. 8.Tashdid. 9.Alloh.

Nazorat uchun savollar:

1. SHamsiy harflar qaysi?
2. Qamariy harflar qaysi?
3. Izofa soʻzining istiloh sifatidagi maʼnosi nima?
4. Izofa birikmasi orqali oʻzbek tilida koʻproq qanday otlar uchraydi?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N.Ibroximov, M.Yusupov, «Arab tili grammatikasi», 1997-T
- 2.E.Talabov, «Arab tili» 1993-T

### **Mavzu: Forsiy izofa**

Reja:

1. Fors izofasining koʻrsatkichi.
2. Aniqlanmishning soʻnggi tovushi undosh bilan tugagan soʻz lar da izofa.
3. Aniqlanmishning soʻnggi tovushi «a» unlisi bilan tugagan soʻzlarda izofa.
4. Aniqlanmishning soʻnggi tovushi «u» yoki «u» unlisi bilan tugagan soʻzlarda izofa.
5. Izofaning talaffuzi.

Eski oʻzbek yozuvi yodgorliklarida arab izofalariga qaraganda forsiy izofa koʻproq uchraydi. Maʼlumki, arab va fors izofalari mohiyat eʼtibori bilan hamda soʻz tartibi jihatidan oʻzbek tiliga teskari. Oʻzbek tilida oldin aniqlovchi, soʻngra aniqlanmish kelsa, arab va fors tillarida aksinchadir. Forsiy izofali birikmalarning baʼzilari hozir ham adabiy tilimizda mavjud. Ular asrlar moboynda tilimizga singib ketgan.

Fors tilida izofa koʻrsatkichi odatda, yozuvda aks etmaydi. Lekin baʼzi istisnolar ham bor.

. IZOFA Fors tilida izofa aniqlanmish bilan aniqlovchi o'rtasidagi munosabatni ifodalovchi i tovushiga izofa deyiladi. Izofa arabcha so'z bo'lib, qo'shish, orttirish degan ma'nolarni anglatadi. Hozirgi zamon o'zbek tilida ko'plab izofali birikmalar uchraydi. Masalan: dard-i bedavo, dard-i sar, tarjima-i hol, nuqta-i nazar.... Ammo klassik adabiy tilimizda izofali birikma jonli grammatik birikma sifatida keng tarqalgan edi. Klassik adabiy tilimizda yozilgan yodgorliklarni, badiiy asarlarni o'qib, tushunib olish uchun boshqa bir qator talablar bilan birga fors-tojik izofasini ham jonli grammatik shakl sifatida bilib olish kerak bo'ladi. Fors-tojik izofasini o'rganishning bir qator murakkablik tomonlari bor. Bular quyidagilar: 1) Izofali birikma tarkibidagi so'zlarning tartibi o'zbek tilidagidek emas. Bunday birikmada aniqlanmish oldin keladi, aniqlovchi esa keyin keladi. O'zbek tilida avval aniqlovchi, so'ngra aniqlanmish keladi. Masalan: dard-i bedavo nuqta-i nazar davosiz dard nazar nuqtasi 2) Eski o'zbek yozuvida aksariyat hollarda fors izofasi aks ettirilmaydi, ya'ni izofa yozuvda ko'pincha biror bir belgi bilan ko'rsatilmaydi. Masalan, oshiq-i zor birikmasi arab yozuviga asoslangan eski o'zbek yozuvida ب ه ناء tarzida yoziladi. Bu misolda oshiq vaz zor so'zlari o'zaro birikib izofali birikma hosil qilgan. Izofa ko'rsatkichi bo'lgan i esa yozuvda ko'rsatilmagan. Lekin yozuvda ko'rsatilmasa-da o'qilishi shart. Aniqlanmish qanday tovush bilan tugallanganligiga qarab, izofa bir necha fonetik holatlarga ega bo'ladi: a) Agarda aniqlanmish undosh harflardan biriga tugallangan bo'lsa izofa zir belgisi bilan ifodalanadi va i tarzida talaffuz etiladi. Fors tilida esa –e tarzida talaffuz etiladi. Zir belgisi yozuvda tushib qoladi, lekin har doim talaffuzda saqlanadi. بيبي ثواكه birodari aziz aziz do'st [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi 93 و ككهك dardi sar bosh og'rig'i ب ه ناء oshiqi zor zor (bo'lgan) oshiq ككهك اثيل dardi bedavo davosiz dard b) Agarda aniqlanmish a unli tovushi bilan tugallangan bo'lsa, izofa ء hamza belgisi orqali ifoda etilib, i tarzida talaffuz qilinadi. Hamza belgisi yozuvda tushub qoladi. ال هتزو volidai muhtarama muhtaram ona روعو ئيل tarjimai hol tarjimai hol و أز و nuqtai nazar nazar nuqtasi بيع oynai jahon jahonning oynasi v) Agarda aniqlanmish o, u unli tovushlaridan biriga tugallangan bo'lsa, izofa ي-yo harfi orqali ifoda etilib, i

tarzida talaffuz qilinadi. **بياً وثبیه** ruyi zamin er yuzi **یه بهی** oshnoi mehribon mehribon o'rtoq ovozi Toshkent Toshkand sadoi

Agar aniqlanmishning so'nggi tovushi undosh bilan tugasa, yozuvda hech qanday belgi qo'yilmaydi. Lekin talaffuzda aniqlanmish bilan aniqlovchi o'rtasiga «i» tovushi qo'shib aytiladi:

، **تخت روان** ، **درد سر** ، **مرد کار** (taxt ravon, dard sar, mard kor.) lekin taxtiravon, dardisar, mardikor deb o'qiladi.

Agar aniqlanmish «a» unlisini ifodalovchi ◦ bilan tugasa ◦ ustiga hamza belgisi yoziladi va «i» tovushi sifatida talaffuz qilinadi: **نقطه نظر** ، **ترجمه حال**

Nuqta + hamza + nazar, tarjima + hamza + hol yoziladi, lekin nuqtai nazar, tarjimai hol tarzida o'qiladi.

Agar aniqlanmish «u» yoki «u» unilari, yoki ۱ bilan tugasa, ulardan so'ng (ye, yi) harfi yozuvda ifodalanishi kerak: **روی زمین** ، **روی سیاه** (ruyi zamin, ruyi siyox) «V»ni bildiradigan و yoki «h»ni bildiradigan ◦ bilan tugagan . bo'lsa ham, izofalik belgisi «i»- «zer» harakati vositasida ifodalanadi: **سرو گل** (Sarvigul).

Tayanch so'z va iboralar:

1. Aniqlanmish. 2. Aniqlovchi. 3. Izofa ko'rsatkichi.
4. Xoyi xavvaz. 5. Hamza.

Nazorat uchun savollar:

1. Arab izofasi bilan fors izofasining farqi nima?
2. Forsiy izofaning o'zbek tilidagi ekvivalenti nima?
3. Forsiy izofalar talaffuzida nimalarga e'tibor berish kerak?
4. Forsiy izofalar imlosida nimalarga e'tibor berish kerak?
5. Forsiy izofani tushunishda nimalarga e'tibor berish kerak?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.Abdusamatov. «Fors tili», T-1996.
2. O.Nosirov, M.Yusupov. «Eski o'zbek yozuvidan metodik tavsiyalar». N-1990
3. R.Jumaniyozov. «Eski o'zbek yozuvi». T-1989.

## **Mavzu: Muchal hisobi.**

Reja:

1. Muchal hisobi haqida tarixiy manbalar.
2. Muchal hisobi haqida turli fikrlar.
3. Muchal hisobining nomlanishi.
4. Muchal hisobining hisoblash usullari.

Muchal hisobi 12 yilni o'z ichiga oluvchi davriy yil bo'lib, undan har bir yil biror hayvon nomi bilan ataladi. Bu hisob qadimdan dunyoning ko'plab mamlakatlarida tarqalgan. Lekin, shunisi qiziqarliki, dunyoning bir-biridan yiroq mamlakatlarida yashaydigan xalqlarning muchal nomlari bir- biriga yaqindir.

Muchal haqida ma'lumot juda ko'p manbalardan, jumladan Beruniyning «Osor ul-boqiya» hamda Maxmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'otit - turk» asarlarida ham batafsil berilgan. Jumladan, M.Qoshg'ariy o'z asarida «Turklar 12 xil hayvon ismini 12 yilga ot qilib qo'yganlar» deydi. Ayrim tarixiy manbalarda muchal hisobining kelib chiqishi totemizmga bog'lanadi, boshqa olimlarning fikriga ko'ra, bu tushuncha astronomiya tushunchalariga aloqador. Odatda, muchal yili 22- martdan boshlanadi va 21-martda tugaydi.

Muchal yillari quyidagi hayvonlar nomi bilan ataladi:

1. Sichqon (Mush).
2. Sigir (Baqar).
3. Yulbars (Falang).
4. Quyon (Hargush).
5. Baliq (Nahang).
6. Ilon (Mor).
7. Ot (Asp).
8. Qo'y (Gusfand).
9. Maymun (Hamduna).
10. Tovuq (Murg').
- I. It (Sak).

## 12. To'ng'iz (Huk).

MUCHAL YIL HISOBI Ajdodlarimiz arab istilosiga qadar o'zlarining yil hisobiga ega bo'lishgan. Muchal hisobiga asoslangan hisob ana shunday yil hisoblaridan biridir. Bu hisob turi uzoq davrlardan beri turkiy xalqlarda, jumladan, o'zbek, qozoq, uyg'ur, xitoy, turkman hamda mo'g'ul xalqlari o'rtasida qo'llanib yozma manbalarda, hujjatlarda, turli voqealarning sanasini (ta'rixini) aniqlashda, yohud qayd etishda istifoda etib kelingan. Qadimiy qo'lyozma yodgorliklarning xotimasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ularda asarning yozilib tugallangan ta'rixini hijriy yili bilan berilishi barobar muchal hisobida ham ko'rsatib o'tilganining guvohi bo'lamiz:  $\text{يُؤْتِي فَاغَ هَال كَزْبَةَ كَبْرَتِ الْاُتْبَةَ هَلَكِ الْاَثْاَ الْكَزْبَةَ رُوذِ}$  Xotimadan yozma ma'lum bo'lishicha, qo'lyozma Xorazmda kotib Mulla Xo'janioz ibn Shabad so'fi Xorazmiy tomonidan hijriy 1325 (melodiy 1907) qo'y yili ramazon oyining 26-sida ko'chirib tugatilgan. Muchal borasidagi dastlabki ma'lumotlar Beruniyning «Osorul-boqiya», Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'atit-turk» va boshqa manbalar orqali bizgacha etib kelgan. Ulardan ma'lum bo'lishicha, turklar o'n ikki yilni o'n ikki hayvon nomi bilan ataganlar va insonning tug'ilishi, vafoti, jang tarixlari va boshqa muhim hodisa, voqealarning sodir bo'lgan yilini aniqlashda ana shu yillarning aylanishiga suyangalar. Muchal yili hisobi tartibi: 1. Sichqon. 2. Ud (sigir). 3. Bars (yo'lbars). 4. Tovushqon (quyon). 5. Nak (timsoh). 6. Yilon (ilon). 7. Yo'nd (ot). 8. Qo'y. 9. Bijin (maymun). 10. Taqag'u (tovuq). 11. It. 12. To'ng'iz. Muchal yili 21 martdan boshlanadi. Kishining qaysi muchal yilida tavallud topganini hisoblab topish uchun uning tug'ilgan yiliga to'qqiz raqami qo'shiladi, hosil bo'lgan son o'n ikkiga bo'linadi, qolgan qoldiq muchal yili hisoblanadi. Masalan, biron kimsa 1980 yili tug'ilgan bo'lsa, uning muchal yili quyidagicha aniqlanadi: 1.  $1980+9=1989$  2.  $1989:12=165$  Qolgan qoldiq soni 9. Demak, u kishi bijin, ya'ni maymun yilda tug'ilgan ekan



illiklar	0,3,6,9,12,15,18,21,24,27,30,33	maymun	tovuk	it	to'ngiz	sichkon	sigir	yulbars	kuyon	balik	ilon	ot	qo'y
	1,4,7,10,13,16,19,22,25,28,31,34	sichkon	sigir	yulbars	kuyon	balik	ilon	ot	qo'y	maymun	tovuk	it	to'ngiz
	2,5,8,11,14,17,20,23,26,29,32,35	balik	ilon	ot	qo'y	maymun	tovuk	it	to'ngiz	sichkon	sigir	yulbars	quyon
o'n yilliklar	00	01	02	03	04	05	06	07	08	09	10	11	
	12	13	14	15	16	17	18	19	20	21	22	23	
	24	25	26	27	28	29	30	31	32	33	34	35	
	36	37	38	39	40	41	42	43	44	45	46	47	
	48	49	50	51	52	53	54	55	56	57	58	59	
	60	61	62	63	64	65	66	67	68	69	70	71	
	72	73	74	75	76	77	78	79	80	81	82	83	
	84	85	86	87	88	89	90	91	92	93	94	95	
	96	97	98	99	-	-	-	-	-	-	-	-	-

Tayanch so'z va iboralar:

1. Muchal. 2.12 hayvon nomi. 3. 22 mart. 4. Nahang. 5. Asp.
- b. Hamduna. 7. Qoldiq. 8. Tarixiy sana. E. Tug'ilgan yil. 10. YUz yilliklar. 11. O'n yilliklar.

Nazorat uchun savollar:

1. Muchal nima?
2. Muchal yili uchun qaysi hayvonlar nomi olingan?
3. Muchal uchun olingan qaysi xayvonning nomi birinchi?
4. Muchalni topish uchun qanday matematik usullarni bilasiz?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M. Abdusamatov. «Fors tili», T-1996.
2. O. Nosirov, M. Yusupov. «Eski o'zbek yozuvidan metodik tavsiyalar». N-1990
- Z. M. Qoshg'ariy. «Devoni lug'otit-turk». 1-tom. T-1960.

## Mavzu: Hijriy va melodiy yillarni hisoblash.

Reja:

1. Yangi va eski yil hisoblari.
2. Hijriy-qamariy yil.
3. Hijriy-shamsiy yil.
4. Kabisa yili.
5. Melodiy yil.
6. Hijriy-qamariy yilni melodiy yilga aylantirish.
7. Melodiy yilni hijriy-qamariy yilga aylantirish.

Agar biz qo'lyozma kitoblarga e'tibor bersak, uning tugallanmasida تمت الكتاب بعون الملك الوهاب در سنة kabi yozuvlarga ko'zimiz tushadi. Eski yil hisoblarini bilmagan odam kitob juda qadimgi ekan deb o'ylaydi. Aslida bu 1113 raqami eski yil hisobi bo'yicha asar tugallangan yilni bildiradi va u hijriy yili deb ataladi. «Hijriy» so'zi so'zidan olingan bo'lib, «ko'chish» degan ma'noni anglatadi.

Hijriy yil 622 yil 16 iyulda islom dinining payg'ambari Muhammad ibn Abdullohning o'z tarafdorlari bilan Makka shahridan Madina shahriga ko'chgan yilidan boshlanadi.

Hijriy yil 2 xildir. Biri hijriy-qamariy, ikkinchisi hijriy-shamsiydir. Musulmon mamlakatlarining barchasida hozir ham hijriy yil hisobidan foydalaniladi.

Hijriy-qamariy yil hisobi oyning er atrofida aylanish davriga asoslangan. U 354(355) kundan iborat.

Hijriy-qamariy yil 12 oydan iborat bo'lib, toq oylar 30, juft oylar 29 kunlik qilib olingan.

Kabisa yislida 12-oy 30 kunlik qilib olinadi va shu yil kabisa Yili deb ataladi.

Hijriy-shamsiy yil 31 va 30 kunlik 12 oydan iborat, faqat bir oy 28 kunlik bo'lib, u kar turtinchi yilda 29 kunlik hisoblanadi va usha yil kabisa Yili hisoblanadi. Hijriy-qamariy va hijriy-shamsiy yillari orasidagi farq I kun bo'lib, u qamariy yil oylarining siljib borishiga tug'ri keladi. Har 33 yilda hijriy-qamariy Yili bir davrani aylanib chiqib, yana bir vaktga tugri keladi. Kdmariyning 33 yili

shamsiyning 32 yiliga tugri keladi.

Astronom olimlar oy 29 kecha-kunduz, 5 soat, 30 dakika, 59 soniyada o'zining birinchi joyiga kelishini aniqlaganlar. Ammo kun, xafta, oylar faqat butun sonlar bo'lishligi lozimligidan, yil oylari shartli ravishda 29 va 30 kecha-kunduz deb olingan. Demak, takvimiy oy hisobi oyning xakikiy hisobidan ortda qolib ketadi. Bu ortda qolish har 30 yilda taxminan 11 kecha-kunduz qo'shib, 30 yilning 19 yilini 354, 1 yilini esa 355 kecha-kunduz hisoblanadi. Har 30 yilning 2,5,7,10,13,16,18,21,24,26,29 yillari kabisa arabcha «tuldirilgan» yil deyiladi.

Melodiy yil Grigoryan yili bo'lib, u hijriy-shamsiyga o'xshash 365 (366) kun, oylari ham 30, 31 kundan iborat. Fevral oyi 28 kun bo'lib, 4 yilda 1 marta 29 kun hisoblanadi va usha yil kabisa yil deb ataladi.

Hijriy yangi yil har yili kuyosh takvimi hisobidan 1 kun oldin keladi. Binobarin, har 32 kuyosh yilida hijriy takvim 1 yil oldinga ketadi, ya'ni kuyosh yilida 32 yil utganda, hijriy takvimda 33 yil utgan bo'ladi.

Hijriy yilni melodiy yilga aylantirish uchun uni 33 ga bo'linadi, so'ng bo'lishdan chiqkan sonni hijriy yilidan ayirish, ayirishdan qolgan songa 622 ni qo'shish kerak. Ba'zan 33 ga taksim qilinganda natija qoldik bilan chiqadi. Agar usha qoldik 33 ning yarmidan ziyod bo'lsa (ya'ni 18), u holda usha qoldik 33 dan kam bo'lsa ham, 1 dan tekkan hisoblanadi.

Hijriy yilni melodiy yilga aylantirish formulasi quyidagicha:

$$M=X-(X:33)+622$$

Melodiy yilni hijriyga aylantirish uchun melodiy yildan 622 ni olinadi, so'ng natijani 32 ga taksim qilinadi. So'ng bo'lishdan chiqkan natijani, olishdan chiqkan natijaga qo'shiladi va kelib chiqkan son hijriy yil hisoblanadi:

$$X =M-622+(M-622):32$$

Tayanch so'z va iboralar:

1. Hijriy.
2. Qamariy.
3. Kabisa.
4. Grigoryan.
5. Muhammad ibn Abdullox.
6. Melodiy.

Nazorat uchun savollar:

1. Qamar so'zining istilox sifatidagi ma'nosi.
2. SHame so'zining ma'nosi.
3. Milod so'zining istilox sifatidagi ma'nosi.
4. Kabisa so'zining istilox sifatidagi ma'nosi.
5. Yil hisobi formulasidagi 32, 33 raqamlari nimani anglatadi?
6. Yil hisobi formulasidagi 622 soni nimani anglatadi?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.Abdusamatov. «Fors tili», T-1996
2. «Eski o'zbek yozuvidan metodik tavsiyalar», O.Nosirov, M.Yusupov, N-1990.
3. «Eski o'zbek yozuvi» R.Jumaniyozov, T-1989.

### **Hijriy-qamariy, hijriy-shamsiy yil oylari, ularning o'zbekcha nomlanishi va Evropa kalendari.**

#### **Reja:**

1. Oylarning turlari.
2. Hijriy-qamariy oylar.
3. Hijriy-shamsiy oylar.
4. Oylarning o'zbekcha nomlanishi.
5. Evropa kalendari.

Eski yozuvdagi kitoblarda yil hisobi uchun ishlatilgan turlicha oylarni nomini kurish mumkin. Ular asosan 3 turdadir. Kddingi kitoblarda hijriy-qamariy va hijriy- shamsiy yili oylarini uchratish mumkin. XX asrda chop etilgan kitoblarda ba'zi hollarda Evropa kalendari oylari ham arab yozuvida ko'zga tashlanadi.

Eski yozuvdagi ko'plab kitoblarning oxirgi sahifalarida «ushbu kitob muharram oyining beshinchi kunida (yoki kave oyining oltinchisida) tamomiga etkurildi» kabilidagi jummalarni ukiymiz. Demak, hijriy yil hisobi oylarini ham bilish zarurligi xayot talabidir.

X,ijriy-qamariy yil 12 oydan iborat bo'lib, tok oylar 30, juft oylar 29 kunlik kabo'l qilingan va ular quyidagicha nomlanadi:

1. محرم - Muharram - Ashur oyi
2. صفر - Safar - Safar oyi
3. ربيع الاول - Rabe' ul-avval - Mavlud oyi
4. ربيع الثانى - Rabe' us-soniy - Mavlud oyi
5. جمادى الاولى - Jumod ul-avval, Jumod ul-uvlo - Mavlud oyi
6. جمادى الاخره - Jumodus-soniy, Jumad-ul oxira - Mavlud oyi
7. رجب - Rajab - Rajab oyi
8. شعبان - SHa'bon - Barot oyi
9. رمضان - Ramazon - Ro'za oyi
10. شوال - SHavval - Xayit oyi
11. ذوالقعدة - Zulka'da - Ora oyi
12. ذو الحجة - Zulxijja - Kurbon oyi.

Hijriy-shamsiy oylari 622 yilning baxorgi tengkunlik vakti 21 martdan boshlab hisoblanadi. Keyingi yil boshlari 20,21,22 martga tugri keladi. Davomiyligi Evropa kalendariga 365 yoki 366 kunga tug'ri keladi. Bu oylar doim yilning ma'lum vaktiga to'g'ri keladi.

№	Hijriy-shamsiy oylar	Kun	Melodiy yil oylariga mosligi
1	حمل – Hamal	31	21 mart-20 aprel
2	ثور – Savr	31	21 aprel-21 may
3	جوزا – Javzo	31	22 may-21 iyul
4	سرطان – Saraton	31	21 iyun-22 iyul
5	اسد – Asad	31	23 iyul-22 avgust
6	سنبله - Sunbo'la	31	23 avgust-22 sentyabr
7	ميزان – Mezon	30	23 sentyabr-22 oktyabr
8	عقرب – Akrab	30	23 oktyabr-21 noyabr
9	قوس – Kave	30	22 noyabr-21 dekabr
10	جدى – Jadi	30	22 dekabr-20 yanvar
I	دلو – Dalv	30	21 yanvar-19 fevral
12	هوت – Xut	29-30	20 fevral-20 mart

Hozirgi kunda hijriy-qamariy kalendaridan, asosan, diniy bayram va marosimlarni vaktini belgilashda dindorlar foydalanadilar. Hijriy-shamsiydan esa dexkonchilik bilan boʻlib ekish-tikish, hosilni YIBISH paytlarida kekxa otaxon va onaxonlar foydalanadilar.

Ruslar Oʻrta-Osiyoni zabt etib olganlaridan to shu kungacha chop etilgan kitoblarda arab harfida yozilgan Grigoriy kalendari oylari uchraydi, ularning arabcha yozilishi quyidagicha:

1. ينوار - Yanvar
2. فيورال - Fevral
3. مارت - Mart
4. ابريل - Aprel
5. ماي - May
6. ابيون - Iyun
7. ابيول - Iyul
8. اوغوست - Avgust
9. سينتياير - Sentyabr
10. اوكتيياير - Oktyabr
11. نويانر - Noyabr
12. ديكانر - Dekabr

Tayanch soʻz va iboralar:

1. Hijriy-qamariy.
2. Hijriy-shamsiy.
3. Grigoryan.
4. 3ulx,ijja.
5. Mavlud .
6. Ora.
7. Kurbon.
8. Roʻza.
9. E.Barot.
10. Hamal.
11. Asad.
12. Sunboʻla.

Nazorat uchun savollar:

1. Hijriy-qamariy oylarni ayting.
2. "Hijriy-shamsiy oylarni ayting.
3. Grigoryan oylarni ayting.
4. Nega roʻza oyi deyiladi?
5. Nega Qurbon oyi deyiladi?
6. Sunbula soʻzining maʼnosi nima?

عبد الله اولانى نینگ بىرىنچى معلم كىتابىدان

## يامانلىق جزاسى

بىر كىشىنىڭ قاسم اسملى بىر اوغلى بار ايردى آتا و  
آناسىنىڭ سوزىغا كىرماسدان هر خىل يامان ايشلارنى قىلور  
ايردى بالالار بىرلا اوروشىب ياقالاشىب كىملىرىنى بىرتوب  
كىلور ايردى اويدا آناسى مهمان اوچون اسراب قويگان  
طعاملىرىنى يىگان وقتدا آناسى

- قاسم اوغلىم طعامنى سىن بىدىنگىمى دىسا مېن  
يىگانىم يوق موشوك يىگاندىر دىر ايردى بارا بارا  
آناسىنىڭ پولىنى هم اوغىرلاب آلدورغان بولدى  
آناسى بىلىپ اوغلىم پولنى كىم آلدى دىسا آنام  
آلگاندور دىب آناسىنى اوغرى قىلور ايردى بىر كونى  
آناسى اوستال اوستىغا بىر تنگه پول قويىپ اوزى اوخلاگان  
كىشى بوليبىتدى قاسم كىلىپ سىكىن تانگه نى آلىپ آغزىغا  
سالدى شول وقت آناسى اوشلاب آماقچى بولگاندا تانگانى  
يوتىپ يوباردى تانگه بارىپ قاسم نىڭ خلقىمىغا تىقلىپ جان  
بىردى

محترم كىتابخوان كوردىنگىز - مى يامان نىڭ يامانلىقى  
اوزىنىڭ باشىغا بىتدى

## اتفاق

جواهرلار ايچىدا اينگ كىچىكلارى چوماليدور ليكن  
اوزلارى كىچىك بولسالار هم نهايتدا غيرتلى اتفاق  
جاندا تالاردور اوزلارىچا پادشاه لارى كاتتا لارى اسكرلارى  
بولادور اولوغلارى نىمانى بويورسا شونى باجارورلار اتفاق

و غیرتاری ساییسیندا اوزلاریدان کاتتا - کاتتا دشمنلاردان قورقماسلار اگر اولار کبی دشمن کیلیب بیرلاریگا تیگسا همه - همه لاری بیردان یاپوشوب بیر قوینی بیر ایغینی بیر قناتیمی قاتتیغ نیشلاب اوزلاریندان نیچا برابر کاتتا بولسا هم تیزگینا قاجیرورلار

کوردینگیزی یونگ اوزی خوب مایدادور

بیرلاشیب ارقان بولسا فیل بایلانور

اتفاق قا کوچ - قوت کار ایلاماس

اتفاق قا جین هم آزار ایلاماس

قناعت

بیر کیشینینگ علی و ولی آتلیغ ایکی اوغلی بار ایردی علی قناعتلیغ ولی قناعتسیز ایردی بیر کون آتاسی بازاردین آما آلیب کیلیب ایردی بالالارینی سیناماق اوچون چاقیریب مانا سیزلارغا آما آلیب کیلیم دیدی ولی تیزلیک بیرلا کیلیب آتاجان مانگا همه سینی بیرینگ دیدی

علی سیکینگینا کیلیب مانگا بیرگینا آما بیرسانگیز بولادیر دیدی آتاسی علی نینگ قناعتیگا آفرین ایتدی و قوچاغیغا آلدی پیشاناسیدان اوپوب ایکی آما بیردی اما ولی گا آما بیرماک قایدا قناعتسیز بولما دیب ادب بیردی

قناعت بیرلا قارین تویدورورسیز

قناعت بولماسا کوپ آچ قالورسیز

قناعتسیز کیشی بغرینی داغلار

قناعتلیک کیشی آغزینی یاغلار

زر قدرینی زرگر بیلور

بیر کون بیچاره خروس ایغلاری ایلا خشاک اراسینی اختاریب تورغان زماندا بیر دانه مرورید تاپدی اول



مروریدنی چوقوب - چوقوب ناله قیلیب ایدیکه آه عقلسیر آدم  
بالالاری هیچ نیمارساغا یارامایدیغان نیمارسالارنی قدرلی  
بیلیب اینگ قدرلی نیمارسالارنی قدرین بیلماسلار حاضردا  
مان بونی تابغونچا بیر دانه بوغدای تاپسام ایردی مانگا  
اوقات بولور ایردی و کوپ رنج تارتدی

هر کیشی اوز نفسیغا بیر پول اوچون غوغا قیلور  
باشقاغا مینگ سوم ضرر کیلسا قاچان پروا قیلور  
هر کیم اوز قارنین اداسیدور اگر ایشاندور  
قوشدور انсандور اوزینینگ قارنیغا قورباندور

### یاخشیلیک بیردا قالماس

بیر اری سوو اوستیندا اوچوب بارور ایردی ناگاه سووگا  
بیقیلیب کیئی قناتلاری حول بولوب اوچارغا کوچی بیتمادی  
اولار حالتیغا بییدی بونی بیر کبوتر کوروب اریغا رحمی  
کیلوب درحال بیر چوبنی تیشلاب سووغا تاشلادی چاره سیز  
قالغان اری چوبنی آیاقلاری بیرلا اوشلاب کیما قیلیب سوو  
بلاسدین قوتولدی ارادین کوپ وقت اوتمادی بیر بالا توزاق  
قویب کبوترنی توتماقچی بولدی اری بونی کورغان زمان  
اوچوب کیلوب بالانینگ قولاغینی چاقدی بالا قولاغینینگ  
آغریغیدین توزاقنی تاشلاب قولاغینی چانگالادی کبوتر وقتنی  
غنیمت بیلیب اوچوب کییب اولومدین قوتولدی

یاخشیلیک قیلسانگ بولور جانینگ آمان  
یاخشیلیکدین هیچ کیشی قیلماس زیان  
یاخشی سوز بیرلا ایلان اینیدین چیقور  
سوز یامان بولسا پیچاق قینیدین چیقور

## توغریلیغ

بیر کمپیرنینگ اوپیدا بیر توپ بلخ توتی بار ایردی نهایتدا  
توغری اوسغان ایردی بیچاره کمپیرنینگ شو توتدین باشقا  
هیچ نیمرساسی یوق ایردی پیشگان وقتدا قوروتوب قافغا  
سالوب بایلارغا تارتوق قیلوب پول آلیب شو آرقالی وقتینی  
اوتکارور ایردی بیر کون اول شهرنینگ پادشاهی بیر ایوان  
سالماقچی بولوب اوستون اختارگاندا کمپیرنینگ توتی آلدیدا  
توختادی و اوزیچا شول توت یاغچی توغری کیلسا کیراک  
دیپ اویلادی و انی کمپیردین مینگ آلتونغا ساتیب آلدی  
بیچاره کمپیر بای خاتون بولوب قالدی بیر کون کمپیر توتنی  
کورماق اوچون کیلدی کوردیکه توتی جنت کبی. بیر ایوان  
اورتاسیندا توریبدور کمپیر توتیغا قاراب دیدی که  
ای توتوم توغریلیغینگ قیلدی بیزی دولتغا یار  
ایگری بولسانگ سان اوتون بولغانی ایردینگ مان خار-زار  
توغریلار جنتینگ ایوانیدادور  
اوغریلار رنج و علم کونیندادور

## حکایت

کونلارنینگ بیریدا سلطان حسین بايقارا شکارگا چیقیشنی  
اختیار ایتدی اونگا علیشیر نوانی حضرتلاری همراه بولدی  
شکاردان قایتاز ایکانلار بیر قیشلاقدان اوتدیلار کوچه چیتیدا  
تورگان آلتی بییتی یاشلارداگی بالا سلام بیردی سلطان حسین  
قولینی کوکسیگا قویب علیک آلدی و اوتیب کیتا بیردی علیشیر نوانی  
ایسا باله نی کوریب آتینی توختادی پاستگا توشوب بالا بیلان قوش  
قوللاب کوریشدی اوندان سونگ آتگا مینیب یولگا توشدی نوانی  
نینگ بو ایشی سلطان حسین بايقارانی حیران فالدیردی او نوانی گا  
یوزلانیب سیز سولطان نینگ وزیر ی بولسانگیز بونینگ اوسیک

جهانگا تانیقلى شاعر بولسانگيز نيمه اوچون گودك بير بالاگا  
شونچه لار مروت كورساتادورسيز عالم پناه دیدی نوانی گپ  
بالادا ایماس گپ شوندا كه بير وقتلار شو بالانینگ اتاسی مینینگ  
سوادیمنی چیقارگان ایردی مین استاذیمینگ بیته پوشتی آلدیدا  
همیشه قرضداردورمان

### طلب علم

علم قیدیرینگیز توغولگاندین اولگونچا دیگان سوز همه  
آدملارغا برابر بویروق بولسا هم اوقوماقنی بیر یاخشی وقتی بارکه  
اول یاشلیک و بالالیک وقتیدور یاشلیدا اورگانگان علم تاشقا  
اویولغان بیئیکدیک اصلا خیالین کیتماپدور ای شاگردلار امکانی  
باریچه یاش وقتلارینگیزدا اوقوماقغا سعی قیلینگلارکه آلتین عمر  
بیکارگا صرف بولماسون

### یاخشی صفت

آدمزادنینگ عیبی گویمی آدمزاتنینگ عیب و نقصانی شوندا  
کوپکه ساناب تمام قیلیب بولماپدور اول عیبیلردین نيمه قیلسا  
خلاص بولور اندین قوتولماق اوچون بير صفت بارکه انینگ اوزیغا  
لازم کورسا اول عیبیلردین قوتولسا بولور اول صفت قیسیدور اول  
ملالیک و تیلنی ساقلاماقلیدورکه ملالیک شریف صفت اولوب  
تیلنی ساقلاماق سلامتلیککا سبیدور

### حکایت

بیر آدم بیر کیشیدان بیر کیچیک خط یازوب بیرینگ دیب  
التماس قیلدی اول کیشی آیاغیم آغریبدور یازالمایمان دیب جواب  
بیرادی اول آدم دیدیکیم مان سیزنی بیر جایغا بارینگ دیمادیمکه  
مونداغ عذر ایتاسیز اول کیشی ایتدی سوزینگیز راست لیکن مین  
قاچانکه بیراوگا خط یازسام انی اوقوب بیرماغیم اوچون اوزومنی  
چاقیرادور معلوم بولادورکه انینگ خطین اوزیدین باشقا آدم

اوقوبالماس هرکیم خوش خط بولماغی اوچون الاحیدا سعی قیلماغی  
لازم دور

### حکایت

بیر پادشاهنینگ وزیرى عملدین آیندی و سرایدین قوویلدی اول  
وزیر درویشلار دوره سیگا قوشولدی درویشلار صحبتینینگ فیض  
و برکتی اونگا تأثیر ایتدی قلبیدا حضور پیدا بولدی خاطرى جمع  
بولدی پادشاه انگا داغی الطفاتلار کورساتیب اولغی عملینی قایتاریب  
بیریشگا جزم قیلدی لیکن وزیر بو تکلیفنی قبول ایتمادی خدمتدان  
کورا استعفادا یورگان یاخشیراقدور دیب جواب بیردی پادشاه دیدی  
دولتنی اداره قیلماق اوچون بیزگا تدبیرلی دانشمند وزیر لازم دور  
وزیر دیدی شونداغ ایش بیلان شوغوللانیشگا راضیلیک  
بیلدیرماسلیکنینگ اوزی دانشمندلیک علامتیدور پادشاه سوز تاپالمای  
اوز قیلمیشیدان پشیمان بولدی

### نادانلیک

بیر بالا قودوق باشیدا نان بیب اوتوروب ایردی نانی قولیدان  
قودوقغا توشوب کیتتی بالا بیغلاب آتاسینینگ آدیغا باروب حالین  
بیان قیلدی آتاسی درراو اورنیدان توروب بالاسین قولیدین اوشلاب  
قودوق باشیغا کیلدی ایکی قولین قودوقنینگ ایکی یاغیگا قویوب  
باشین اینگاشتوروب قودوق ایچیگا باقغانیدا سوودا اوز عکسینی  
کوروب نادانلیکدان سوودا کورینگان کیشی اوزی ایکانین بیلمادی  
کمال اچچیغی ایلا انگا باقوب ای شیطان بوندای یاش بالانینگ  
قولیدین ناین تارتوب آلب بیب تیریکلیک قیلگونچه آچلیکدین  
اولگانینگ یاخشی ایماسمو دیدی حصه نادانلیک کیشیگا اوز  
اوزینی حقارت قیلدیرور

### اتفاق

بیر کیشینینگ بییتی - ساکیز نفر بالاسی بار ایردی  
بالالارینینگ آراسیدا بولگان اتفاقسیزلیک اوروش - تالاشلارنی

کوروب همه لارینی آدیگا چاقیردی اون دانا اینگیچکا چوبنی بیرگا  
 قوشوب باغلاب بونی سیندورینگیز دیب بالالاریگا  
 بیردیبالالارینگ هر بیرلاری قوللاریگا آلوب زور بیروب  
 کوردیلار هیچ بیرلاری سیندیرا آلمادیلار آخردا سیندورماقغا  
 کوچیمیز بیتمادی دیب قایتاریب بیردیلالر اتالاری چوبنینگ باغینی  
 بیچیب هر قایسیلاریگا بیر دانه دان بیروب مانه بونی سیندیروب  
 کورینگیز دیگانیدا هر بیرلاری سویونوب آلوب اونغایلیک ایلا  
 سیندوردیلار سونگرا اول کیشی بالالاریگا باقوب اوغلانلاریم  
 کوردینگیزی سیز هم شول چوبلارگا اوخشایسیز اگر بارچه نگیز  
 اتفاق بولوب بیرگا قوشولوب تورسانگیز سیزگا هیچ کیمنینگ  
 کوچی بیتمایدور اگر بیر - بیرینگیز ایلا اوروشیب تالاشوب  
 ایریلیشوب یورسانگیز سیزگا هر کیمنینگ کوچی بیروب آیاغ آستی  
 قیلادوردیدی

### حکایت

بیر ایت آغزیدا نان تیشلاب کیچکیناگینا کوپروک اوستیدین  
 اوتوب کیتماکدا ایدی کوزیگا سوو ایچیدا اوزیگا اوخشاب نان  
 تیشلاب تورگان بیر ایت کوردیاول ایتنینگ آغزیداگی نانگا هوسی  
 کیلوب آنی تارتوب آلماک آرزوسیدا تیز - تیز تیکیلگانیدا سووداگی  
 ایت هم بونگا کوزین آلایتوررب قاراب قویار ایردی آخردا نفسی  
 غلبه قیلوب آغزین آچوب ایریلاب سووگا اوزین تاشلادی سووگا  
 توشگاچ بیر شونغوب ینه سوو یوزیگا چیقدیقاراسا نه ایت بار نه  
 نان سوودا کورینگان ایت ایسا اوزینینگ عکسی ایکان سونگرا  
 سوزوب سوزوب زورغا چیتگا بیروب اولار حالتدا سوودین چیقدی  
 اوز ناندین هم ایریلدی چونکه ایریلاب آغزین آچگاندا نانی سووگا  
 توشوب آقوب کیتگان ایدیحصه اوز آغزیداگی قناعت قیلماسدان  
 بیراونینگ نرسه سیگا قول اوزاتگان کیشی اوز نرسه سیدان هم  
 ایریلور

## حکایت

بیر خسیس کمپیر بار ایدی اونینگ اوزگا شهردا  
اوقییدیگان عالم اوغلی بار ایدی او بیر کونی آناسینی کوریش  
اوچون اوییگا کیلدی شوندا آناسی سیوینیب  
اوغلیم یاخشی کیلدینگ سینگا عجائب نارسالار  
حاضرلاب قویکانمان سیمیزگینا غاز گوشتی بار شیرین یاغلی  
قویماغیم بار یانا قویوق قایماغیم هم بار کونکلینگ اولاردان  
قایسی بیرینی خواهلاسا اوشانی اول بیرامان قالگانینی ایسا  
کییینراق بیيسان دیدی اوغلی اونگا  
آناجان مین غاز گشتینی قویماققا اوراب اوندان سونگ  
قایماققا باتیریب بییشگا عادلانگانمان - دیب جواب بیردی  
لقمان حکیم اوغلیگا نصیحت قیلیب شوندای دیدی  
ای اوغلیم قارنینگ تویسا هم یانا اوستیگا زورلاب  
بیما توق قارنینگگا زورلاب بیگانان گورا اوقانتی اینگا  
توکیب بیرگان ثوابلیراقدیر چونکه کوپ بییشدان دل کوزی  
بیکیلادی قلبنی ایسا قارا زنگ باسادی هر خیل کسلیلکاری  
پیدا بولادی ( حکیم قیوم ناصری دان)

## قناعت

اولوغ کیشیلارنینگ یاقیملی خصلاتلاریدان بیری قناعتدیر  
قناعتلی کیشی هیچ قاچان خوار بولمایدی عکسینچه کیشیدا  
قناعت بولماسا تاپگان توتگانیکا صبر قیلمای کوپیگا اینتیلسا  
عاقبت خوارلیک عذابینی تارتادی شونینگ اوچون هم ایتادیلار

بولسا اگر سو پرچه قاتگان نان  
اوزگا کاسه سیگا کوز تیکما انسان  
بولسانگ اگر تاج تخت اوچون محتاج  
زمیننی تخت دیب بیل و قویاشنی تاخ

قناعتینگ یانا بیر ثمره سی ایچیش و بییشدا بیلینادی  
ازگینا اوقاتگا قناعت قیلیب یورگان کیشی کم کسل بولادی  
نظم

کوپ بیما گوردگی قورتلار مثالی  
بیر طبیب بیر کونی بیر عجیب حکمت  
از بیرگا بیل باغلا گویا چومالی  
ایل اوچون ایتگاتمیش قیلیب مرحمت  
بیگین ایچگین دائم کونگیل تارتگونچا  
نه فقط بوغزینگدان تاشیب آرتگونچا

### حکایت

بیر حکیم اوگا چیققان ایدی آشپزیگا اوقت تیارلاشنی  
بو یوریب اوزی یاقینلاری بیلان اوگا مشغول بولدی اوزاق  
یوریب قارنی آچدی اوقاتلانیش اوچون چادرگا قایتدی آشپز  
اونینگ آلدیگا پیشیرگان پلاونی کیلتیریب قویدی حکیم پلاوگا  
قول اوزاتیب بیر آشام آلگان ایدی ایچیدان پشه چیقدی او  
قاتتیق آچیققانیگا قارامای پلاونی بیر چیککاگا سوردی و  
آشپزنی چاقیریب دیدی

پلاونی یاخشی تیارلابسان بیراق بوندان کین پلاو  
تیارلاگانگدا پشه کمراق بولسین  
سونگ اونان بییش بیلان قناعت قیلدی اگار حکیمدا  
قناعت گوهری بولماگاندا آشپزنی جزالان بولور ایدی بیت  
قناعت هر کیمنینگ بولسا یولداشی  
غم بیلان ایگیلماس هیچ اونینگ باشی ( اخلاق ناصری  
کتابیدان)

## انسان بولیش قانچا لار مشکل

بیر آتا رنجیگان حالدا اوغلیگا دیدی سین آدم بولمایسان  
جان بالم سینی تربیه قیلیش اوچون صرف قیلگان بی ثمر  
عمریگا اچینامان اوغیل بو گاپلارگا اعتبار هم بیرمادی  
آرادان بیر قانچا بیللار اوتگاچ اوغیل مملکت  
شهرلارینینگ بیریگا حاکم بولدی

کونلارینینگ بیریدا او اوزینینگ ملازملاریگا آتاسینی  
اونینگ حضوریگا کیلتیریشلارینی بویرودی ملازملا زودلیک  
بیلان اونینگ آتاسینی آلیب کیلدیلار اوغیل آتاسیگا باشدان  
آیاق تکبرانه نظر تاشلادی و دیدی ای قاریه یادینگدا بارمی  
بیر وقتلار مینگا سین آدم بولمایسان دیگان ایدینگ مینینگ  
حاضیرگی حالتیمنی کور

قاریه کولدی و باشینی سرک سرک قیلیب دیدی من  
سینگا حاکم بولمایسان دیماگان ایدیم مین سینگا آدم بولمایسان  
دیگان ایدیم جان بالام

## آنا رضاسی

بایزید بسطامی دیدی مین حیاتیم دوامیدا کوپ عملار  
قیلیب شونی انگلادیمکه اولارنینگ ایچیدا اینگ اولوغی و  
یگانه سی آنالار رضالیگی اوچون قیلینادیگان ایشلاردیر  
بیر کونی آنام کیچاسی اویقودان اویغانیب میندان سوو  
کیلتیریشیمنی سورادیلار کوزه دا سوو یوق ایدی شو سببلی  
کوزه نی آلیب انهارگا باردیم و سوو کیلتیردیم اویگا قایتیب  
کیلسام آنام اوخلاب قالگان ایکان مین تانگگاچا کوزه نی  
اوشلاگان حالدا آنامنینگ یانلاریدا توردیم و اولارنی  
اویغانیشلارینی کوتدیم آنام تورگاچ سوو ایچدیلا و مینینگ  
حقیمگا اوزاق دعا قیلدیلا شوندان سونگ میندان سورادیلار  
بالام نیگا کوزه نی بیرگا قویمای اوشلاب توریبسان مین



آنامگا ایتدیم که آناچان مین سیزنی اوغانیب قالیشینگیزدان  
قورقدیم

پیغمبریمیز محمد علیه السلام بویورادیلار آتا و آناگا آزار  
بیریش آدملارگا ظلم قیلیش و یاخشیلیک اورنیگا یامانلیک  
قیلشدیک اوچ گناه عمل لار بارکه بو ایشلارنی قیلگان  
کیشیلارنینگ یاخشی ایشلاری آخرت اوچون بیثمر بولادی  
شونینگ اوچون آتا آنانگیز هر قانچا یاخشی یاکه یامان  
بولماسین اولارنینگ احترامینی جایگا قویماق لازم دور  
اولارنی رنجیتماق گناه لار ایچیدا اینگ اولوغیدیر

### دانشمندنینگ جوابی

بیر یاش بیگیت مشهور فرنسوز یازوویچیسی الیکسندر  
زیگفریددان سورادی حیاتدا کاتتا موفقیتلارگا ایریشیش اوچون  
قاندای یولنی تانلاماق کیراک دانشمند دیدی توشینگنی تعبیر  
ایتماق اوچون او یغاق بولیشینگ لازم یعنی آگاه حالدا حیات  
کیچیرماق کیراک بیرار اولوگا چیقایاتگاندا او چیراییلی  
بولیشی شرط ایماس بلکه مهمی شونداکه انسان نینگ  
توشادیگان بیکتی یعنی حیاتی دوامیدا قیلگان عمل لاری گوزل  
بولماغی کیراک

### تنبیل شاگرد

کونلارنینگ بیریدا استاذ شاگردیگا ایتدی تاشقاریگا چقیب  
گورچی یامغیر یاغایپتیمی یاکه یوق شاگرد جواب بیردی بو  
موشوک حاضرگینه تاشقاریدان کیلدی اونی اوشلاب کورینگ  
اگر نم بولسا یامغیر یاغایپتی اگر قوروق بولسا یاغمایپتی  
بیر آزدان سونگ استاذ شاگردیگا دیدی باریب قوشنی  
دکاندان اولچاو اسبابینی آلیب کیل متالارنی اولچاماقچیمان

تنبل شاگرد جواب بیردی بو موشوکنینگ دمی یاریم متر  
 سیز اوندان متر اوزنیدا فایدالانیشینگیز ممکن  
 بیر ساعتلاردان سونگ استاذ شاگردیگا ایتدی اوچ کیلالی  
 تاشنی آلیب کیل نارسالارنی اولچاماقچیمان  
 تنبل شاگرد ایتدی بو موشوکنی یوز بار اولچاگانمان اوچ  
 کیلادان قیلچا هم آغیر ایماس  
 استاذ شاگردینینگ تنبل لیگی و حاضر جوابلیگیدان  
 عصبیلاشیب اونگا ایتدی چانقادیم بیر کاسا سوو کیلتیر  
 تنبل شاگرد جواب بیردی ایتگان اوچ ایشینگیزی مین  
 باجاردیم هیچ بولماسا شو ایشنی اوزینگیز بادجارینگ

### حکایت

بیر پادشاه بیر دانشمندنی حضوریگا چارلاب اونگا دیدی  
 مین سینی شو شهرنینگ قاضی سی ایتیب تعیینلاماقچیمان  
 دانشمند دیدی مین بو منصبگا لایق ایماسمان پادشاه سورادی  
 نیما اوچون دانشمند جواب بیردی قاضی لیک اولوغ و آغیر  
 یوموشدیر چونکه حکم قیلش جریانیدا یول قوییلکان اینگ  
 کیچیک خطا هم انسان عمرینی ایزدان چیقاریشی پاکه اونی  
 حلاکت بیاقاسیگا آلیب کیلیشی ممکن

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. M.Abdusamatov. «Fors tili» T-1996.
2. Eski o'zbek yozuvidan metodik tavsiyalar», O.Nosirov, M.Yusupov, N-1990.

#### Umumiy foydalanilgan adabiyotlar ruyxati:

##### 1.1. Asosiy adabiyotlar:

1. Jumaniyozov R. «Eski o'zbek yozuvi» - T-1989.
2. Nosirov O, Yusupov M. Eski o'zbek yozuvidan metodik tavsiyalar. Namangan-1990
3. N.Ibrohimov, M.Yusupov "Arab tili grammatikasi" - T-1997.
4. E.Talabov "Arab tili" - T - 1993.

##### 1.2. Qo'shimcha adabiyotlar

1. B.Z.Xolidov, «Uchebnik arabskogo yazika». T-1977.
2. A.A.Kovolev, YE.A.Sharbatov. «Arabskiy yazik» M-1969
3. X.K.Baranov «Arabsko-russkiy slovar» M-1979
4. O.Nosirov va boshq. «An-Na'im», T-2003
5. M.Muhitdinov, H.Sulaymonova. O'zbekcha-arabcha so'zlashgich. Namangan-2007.
6. Abdullaev F, Shermuhammedov T. Oqish kitobi. T-1994.
7. Juvonmardiyev A. Harf va raqam - T-1993.
8. Muhitdinov M. Eski o'zbek yozuvi (ma'ruzalar matni), Namangan-2006.
9. Xabibullo Solih. Alifbo - T-1989. Kafedra kutubxonasida 20 ta bor.
10. Abdusamatov M. Fors tili. Toshkent-1990.

## Mundarija

Muqaddima.....	4
Eski o'zbek yozuvi va uning ahamiyati.....	6
Eski o'zbek yozuvidagi harflar harakatlar, belgilar va ularning o'ziga xos xususiyatlari.....	9
Xat turlari, ligaturalar, imlosi umumiy qoidaga tushmaydigan so'zlar.....	17
Arab raqamlari. Abjad hisobi.....	21
Shamsiy va qamariy harflar. Arab izofasi.....	27
Forsiy izofa .....	29
Muchal hisobi.....	31
Hijriy va melodiy yillarni hisoblash.....	35
Hijriy-shamsiy va hijriy-qamariy yil oylari, ularning o'zbekcha nomlanishi va Evropa kalendari.....	37
Mustaqil o'qish uchun matnlar.....	40
Umumiy foydalanilgan adabiyotlar ruyxati.....	52





